

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**X.X.MURATOV, R.R.JABBAROV**

*AMALIY va BADIY  
bezak san'ati*

fanidan o'quv qo'llanma

5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

CHIRCHIQ–2020

## **Annotatsiya**

Mazkur o‘quv qo‘llanma «5110800–Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lif yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda amaliy va badiiy bezak san'ati bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar yoritilgan. O‘quv qo‘llanmada amaliy va badiiy bezak san'ati haqida dastlabki ma‘umotlar, amaliy va badiiy bezak san'ati fanining predmeti, plakat shriftini yozishni o‘rganish va uni rangda bajarish, namuna asosida harflar va sonlarni yozish hamda rangda bo‘yash, murakkab reklama harflari asosida to‘liq alfavit va sonlarni yozish, rangda bo‘yash, yozuv kompozitsiyasi — e'lon, shior, tabrik matni kabi yozuvlarni yozishni o‘rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, boyash va pardozlash (1–10 gullar), hajmli buyumlar (o‘yinchoq, kubok, yodgorlik, esdalik buyumlari va h.k.), rangshunoslikka oid turli mashqlar bajarish kabi ko‘plab mavzular nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

O‘quv qo‘llaanmadan «5110800–Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lif yo‘nalishi talabalari qatorida, undan ilmiy izlanuvchilar, kasb–hunar kollejlari, litseylar, umumiy o‘rta ta'lif maktab o‘qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari va havaskor hunarmand usta va rassomlar ham foydalanishlari mumkin.

## **TAQRIZCHILAR:**

Toshkent viloyati CHDPI «Tasviriy san'at» kafedrasи

dotsenti

X.E.Sultanov

K.Bexzod nomidagi MRDI «Tasviriy san'at tarixi va

nazariyasi» kafedrasи dotsenti s.f.n.

R.S.Fatxullayev

## **Аннотация**

Данное учебное пособие предназначено для студентов, 5110800-“Изобразительное искусство и инженерная графика”, где освещены теоретические и практические занятия по декоративно-прикладному искусству. Учебное пособие включает основную информацию о прикладном и художественном декоративном искусстве, предмет прикладного и художественного декоративного искусства, изучение и выполнение шрифта плаката в цвете, написание букв и цифр на основе рисунка, окраска в цвете, написание полного алфавита и цифр на основе сложных рекламных букв, раскрашивание в цвете, написание композиций — научиться писать такие надписи, как объявление, слоган, поздравительный текст, рисовать простые узоры, рисовать и украшать (1-10 цветов), объемные предметы (игрушки, чашки, сувениры, сувениры и т. д.).к.), многие темы, различные упражнения в области изучения цвета носят теоретический и практический характер.

Учебную программу могут использовать студенты обучающихся в области 5110800-“Изобразительное искусство и инженерная графика”, а также научные исследователи, преподаватели профессиональных колледжей, лицеев, средних общеобразовательных школ, руководители кружков внешкольных учреждений и мастера-любители и художники.

## **Summary**

This study guide is intended for students, 5110800 - " Fine arts and engineering graphics", which covers theoretical and practical classes in decorative and applied arts. The training manual includes basic information about applied and decorative art, the subject of applied and decorative art, studying and performing the font of the poster in color, writing letters and numbers based on the drawing, coloring, writing the full alphabet and numbers based on complex advertising letters, coloring, writing compositions - learn to write inscriptions such as announcement, slogan, congratulatory text, draw simple patterns, and decorate (1-10 colors), volumetric objects (toys , cups, souvenirs, souvenirs, etc.). k.), many topics, various exercises in the field of studying color are theoretical and practical.

The curriculum can be used by students studying in the field of 5110800-“Fine Arts and Engineering Graphics”, as well as scientific researchers, teachers of professional colleges, lyceums, secondary schools, heads of circles of extracurricular institutions and amateur craftsmen and artists.

---

## KIRISH

*Bizning vazifamiz — to‘plangan tajriba va  
ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda,  
o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish  
modelini qat’iy amalgaga oshirishdan iborat.*

**Shovkat Mirziyoyev,**  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugungi kunda jahoning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta’lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san’at, xususan, tasviriy va amaliy san’at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o‘rta ta’limning yana o‘n bir yillik bo‘lishi va unda kasbga yo‘naltirish maqsadida o‘quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek akademik litsey, kasb–hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Shovkat Mirziyoyev o‘zlarining Konstitutsiyamizning 24 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzalarida «...farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi–yangi ta’lim–tarbiya, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy–joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga...»<sup>1</sup> ko‘tarish zarurligini aytib o‘tadilar.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shovkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» mavzusidagi mahruzasi. //Xalq so‘zi, 2016 yil, 8 dekabr.

Kadrlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini yangilash, uni maorif, fan, texnika, texnologiya, iqtisod, madaniyat sohalarida respublika hamda xorijda erishilgan yutuqlar asosida qayta ko‘rib chiqish, ta’lim tizimini isloh qilish, uning yagona o‘quv–ilmiy ishlab chiqarish majmui tarzida muttasil rivojlanib borishini ta’minalash, davlat ta’lim standartlarini yaratish va amalga kiritishning ilmiy asoslarini, ishlab chiqish, ta’lim tizimi, ilm–fan, ishlab chiqarishga turli darajadagi kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning o‘zaro ta’sir ko‘rsatish mexanizmini ishlab chiqish, milliy uyg'onish mafkurasi asosida o‘quvchi–yoshlar hamda mutaxassislarni tarbiyalashning surunkali dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi o‘quv–tarbiya jarayonlarini ilmiy–uslubiy jihatdan ta’minalash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik tajribalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash jarayonini o‘quv–dasturiy hujjatnomalar, didaktik va uslubiy jihatdan ta’minalashni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini fundamental hamda amaliy ilmiy–tadqiqot ishlari asosida rejalashtirish va ishlab chiqish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv jarayonining axborot bilan ta’minalishini yuksaltirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, o‘quvchilarining shaxsiy xususiyat va qobiliyatlarini, shuningdek, yetuk mutaxassisning shakllanishi, o‘qishi, tarbiyasi va mehnatini baholash muammolari bo‘yicha psixologik–pedagogik tadqiqotlar olib borish, ta’lim jarayoni sifatini xolis baholash tizimini yaratish va amaliyotda qo‘llash hamda shunga o‘xshash boshqa yechimini kutib turgan muammolarni bartaraf etish, uzlusiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta’minalash, ularni zamonaviy o‘quv–laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va o‘quv–metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy–texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora–tadbirlarni ko‘rish, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart–sharoitlarni tubdan yaxshilash,

bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish, umumiyoq o'rta ta'lif sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish borasida izlanishlar olib borilmoqda va mavjudlari dartaraf qilinmoqda<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqoniksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang–barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda amaliy va badiiy bezak san'ati fani alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiyoq dunyoqarashlarini o'stirishda muhim. Yozuv kompozitsiyasi, yozuvlarni yozishni o'rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, boyash va pardozlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Mavjud ta'lif–tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatlari avlodni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari hamda harakatlar strategiyasi negizini tashkil qiladi.

Bu dolzarb vazifalar prezidentimiz va hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib, boshqa farmon va qarorlarda o'z aksini topmoqda.

Go'zallikni his qila olishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish, san'at asarlarini, tarixiy va me'morlik yodgorliklarini, ona tabiat go'zalliklarini, boyligini tushunish va kadrlarni shakllantirish maqsadida har bir o'quv fani, ayniqsa

---

<sup>2</sup>2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. –T.: 2017.

shaxsning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, estetika kabi fanlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish kerak.

Amaliy va badiiy bezak san'atini o‘rganish yoshlarga atrofdagi jismlarning stillashtirgan holda, badiiy tafakkur, ijodiy qobilyat, ko‘rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni rivojlantirish, amaliy va badiiy bezak san'atida kompozitsiya masalalari, naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar, o‘quv va tarbiyaviy jarayonda badiiy bezak san'atining o‘rni, amaliy bezak san'atida kompozitsiya, shriftlar, reklama, e’lon, shior, tabrik matni namunalari, interer va ekstererda badiiy bezash bilan tanishtirish orqali nazariy jihatdan o‘rgatadi hamda ularning estetik didlarini o‘stirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘rta maxsus, kasb–hunar va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqazo etib, pedagoglar, olimlar, ustalar va rassomlar zimmasiga mashaqqatli va ayni paytda sharafli va yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Yoshlarga yuqori darajada ta’lim–tarbiya berish — bo‘lajak rassom–pedagogdan amaliy va badiiy bezak san’ati sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo‘lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma'lumotga ega bo‘lishni taqazo etadi. Hozirgi vaqtda o‘rta maxsus kasb–hunar kollejlarida mutaxassislik fanlar, jumladan tasviriy san'at mashg‘ulotlarini o‘qitishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo‘li, shakli, mazmuni hamda usullarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Talabalarga — amaliy va badiiy bezak san’ati fanini o‘qitilishida quyidagi texnik vositalardan foydalaniladi: Amaliy san'at namoyandalari, xalq ustalari, yetuk o‘zbek va xorijiy tasviriy san'at usta rassomlarining jahon miqiyosida tan olingan san'at asarlari namunalari hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish taqazo etiladi. Buyuk san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga bag‘ishlangan kino lentalari, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng foydalanilgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasi, islimiy, girihi, gulli girihi hamda madohil naqsh kompozitsiyalari, turli reklama e'loni, loyihalashga oid tasvirlar aks ettirilgan plakatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'qishga kelish bolalar uchun quvonchli va qiziqarli bo'lishi kerak. Bu esa birinchi galda, o'quv jarayonining xarakteri va ularni qurshagan muhitga boqliq. O'quv yurti binosining ichki va tashqi qiyoqasi hech qachon o'quvchilarni e'tiboridan chetda qolmaydi. Bunda me'morlik — loyihalashda ko'rilgan tadbirlar qatorida o'quvchilar qo'li bilan bezatilgan turli ko'rgazmalarini nazarda tutish lozim.

O'quv yurtini bezatish, undagi badiiy bezak ishlarni yaxshi tashkil eta oladigan mutaxassislar kamligi, bu ishlarni o'rgatish uchun o'zbek tilida maxsus adabiyotlar nashr etilmagani sababli o'quv yurtlarda badiiy bezak ishlari asosida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar murakkablashmoqda.

Yuqorida bayon etilgan muammolarni ijobiy hal etish — bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ijodiy tasavvurlarini o'stirish dastlabki bosqichlardan amalga oshirilishi lozim.

Amaliy va badiiy bezak san'ati fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar:

- o'zbek milliy san'atida badiiy naqqoshlikning roli;
- badiiy naqqoshlikning o'ziga xosligi va estetik mohiyati;
- amaliy va badiiy bezak san'atida kompozitsiya masalalari haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- tasviriy san'atda amaliy san'atning o'rni va roli;
- naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar va milliy qadriyatlar;
- murakkab naqshli kompozitsiyalar tuzish;
- amaliy-dekorativ san'atda kompozitsiya;
- amaliy bezak san'atida kompozitsiyaning qo'llanilishini o'rganadi va ulardan foydalanadi;

- kompozitsion markaz, konstruktsiya, mavzu, harakat, yaxlitlik, kolorit, nisbatlar, me'yor, mutanosib va nomutanosiblik;
- dekorativ san'at turlarida janrli kompozitsiya;
- o'quv va tarbiya jarayonida badiiy bezak san'atining o'rni;
- amaliy bezak san'atida kompozitsiya, rang masalalari;
- shriftlar va materiallarda ishslash texnikasi;
- interer va ekstererda badiiy bezash;
- kompozitsiyaning asosiy qonuniyatları, frontal kompozitsiya elementlari, zamonaviy ekspozitsiya va konstruktsiyalar;
- badiiy bezak san'atida xalq amaliy san'ati turlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Amaliy va badiiy bezak san'ati fanini o'rgatish barcha umumta'lim va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Mazkur qo'llanma shu sohadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Talabalar olgan bilimlaridan kelajakda o'quv yurtlaridagi amaliy va badiiy bezash ishlarida ijodiy foydalanadilar. O'quv yurti intereri, xona va zallari, fasadi hamda hovlisini panno, plakat va hokazolar bilan bezatishda, devoriy gazetalar, albomlar, e'londalar, taklifnomalar tayyorlashda faol qatnashadilar hamda bu ishlarga boshchilik qiladilar, degan umiddamiz.

Qo'llanma asosan pedagogika oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, shuningdek kasb ta'limi yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan kasb-hunar maktablari, kollej va litseylar, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari, tarbiyaviy ishlar uchun mas'ul shaxslar, maktabdan tashqari muassasalarining to'garak rahbarlari va havaskor bezakchi ustalar ham foydalanishlari mumkin.

Muallif tomonidan o'quv qo'llanmaning mazmunini yanada boyitish borasidagi izlanishlari davom etishi tabiiy. Kitobni yanada takommillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalarining bo'lsa, bizga yozib yuborsangiz Sizdan minnatdor bo'lar edik.

## **1–§. Amaliy va badiiy bezak san'ati fanining predmeti**

Inson hayoti va faoliyati davomida zarur bo‘lgan bilimlar sarhadi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig‘indisini o‘zlashtirish bilan chegaralanib qolishi uni ma’naviy qashshoqlikka olib keladi. Shuning uchun talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda to‘ldirib va boyitib borishni, o‘zining diqqat-e’tiborini axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o‘rgatish talab etiladi. Bu vazifa talabalarning badiiy bezash ishlarini ta’lim–tarbiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda kengaytirish va rivojlanadirishni taqazo etadi.

Amaliy va badiiy bezak san'ati turlari ijodiy mehnat bilan chambarchas bog‘liq va shuning uchun talabalarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma’naviy jihatdan boyitadi. Amaliy va badiiy bezak san'ati bugungi hayotimizning turli sohalarini, har xil voqealarni to‘la qamrab olishi lozim. U davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakat tarixi, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiat va boshqalarni ifodalashi kerak.

Talaba kunning ancha qismini ta’lim muassasalarida o‘tkazadi. O‘quv yurtidagi butun muhit uni go‘zallik qonunlari asosida yashashga, hayotdagi rang–barang holatlarni ko‘ra bilishga o‘rgatishi lozim.

Talaba o‘zi ta’lim olayotgan muassasa binosiga, uning yonidagi hududga va sport maydonchalariga qarab, ulardagi go‘zallikni his etishi, umuman o‘quv dargohining qiyofasi unda o‘zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o‘ylab, chiroyli qilib bezatilgan va alohida e’tibor bilan tutiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo‘lka va gulzorlar, hovli, kiraverishdagi me’morial taxta, mehnat, kiyinish madaniyati va odob–axloq kategoriyalari kabi mavzulardagi stendlar, binoning joylashishi tasvirlangan sxema va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hammasida mazkur badiiy bezash uslubi ko‘zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Badiiy bezak san'atining binoni bezatishdagi asosiy yo‘nalishlari o‘quv xonalarini, sport va majlislar zallarini, koridorlarni bezash, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘quv muassasasi teatri uchun dekoratsiya ishlash, dekorativ–amaliy san'at buyumlari

yasash, plakatlar chizish, turli axborot vositalarini tayyorlash va hokazolardan iboratdir.

O‘quv muassasasiga kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, dars jadvali, talaba–yoshlarning ijodiy ishlardan namunalar ko‘zga tashlanib turishi kerak. Ular naqqoshlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, mozaika, misgarlik va hokazolar bo‘yicha har xil ishlarni bajarib dekorativ–amaliy san'atning qiyinroq va murakkabroq turlarini o‘zlashtirib boradilar. Turli muammolarga doir munozaralar, adabiy kechalar, bayram tadbiralarini o‘tkazish, ko‘rgazmalar tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish va badiiy bezash ishlarini amalga oshirish talaba–yoshlardan o‘tkir did, ixtirochilik va bilimdonlikni talab qiladi<sup>3</sup>.

Talaba–yoshlarga har bir ishda ijodiy qatnashish imkonini berish, ularning faoliyatini shoshilib, haddan tashqari, ortiqcha talabchanlik bilan baholamaslik, ammo ishni sifatsiz bajaraverishlariga ham yo‘l qo‘ymaslik, shogirdlarning taassurotini o‘stirish va ularga o‘z taassurotlarini ifodalashning qulay shakllarini topishda ko‘maklashish lozim. Mana shular mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o‘z kuchiga ishonchni tarbiyalashning muhim omillaridir. Bu ham asosiy vazifalarimizdan biridir. Binobarin, yoshlarning ta‘lim–tarbiyaviy ishlar jarayonida faol qatnashuvi hozirgi hamma pedagogik yo‘nalishlarning bosh mazmunidir.

Amaliy va badiiy bezash ishlari talaba–yoshlar bilan olib boriladigan g‘oyaviy–tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshrishga, ya’ni o‘g‘il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy faollikni, ongni, intizomni, madaniy xulq–atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga, ijtimoiy mulkka munosabatni shakllantirishga, politexnik va estetik bilimlar doirasini kengaytirishga, badiiy qobiliyatni o‘stirishga xizmat qilish kerak.

Dekorativ san'at vositalari orqali mana ma’naviy–ma'rifiy kechalarning har biri uchun kerakli muhit yaratilishi kecha mavzusi, uning mazmuni murakkabligidan qat’iy nazar, talaba uni chuqur his etishida katta yordam beradi. Har qanday metodik vazifa singari badiiy bezash ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishni

---

<sup>3</sup>Кодирхўжаев П. Бадиий безак санъати. –Т.: Иқтисод–Молия, 2007, –108 6.

talab etadi. Professional o'qituvchi talabaning badiiy izlanishlarini to'qri va konstruktiv yo'nalishga solib, ijodiy yondashish, yetuk badiiy xulosalar chiqarishga olib boradi.

**Tayanch tusunchalar:** ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, xulq-atvor, kasb-hunar, ijod, ijodiy, professional, dekorativ, konstruktiv, san'at, muassasa, bezak.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Amaliy va badiiy bezak san'ati fani nimani o'rganadi?
2. Amaliy va badiiy bezak san'ati fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?



1. O'quv muassasasi rejasi bilan tanishish.
2. Amaliy va badiiy bezak san'ati turlari bilan tanishish.
3. Ta'lim olayotgan muassasa binosi, uning yonidagi hudud va sport maydonchalari hamda ekin maydonlari va gulzorlarni o'rganish.

### **2-§. Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o'rni**

Amaliy san'at keng miqyosda rivojlanayotgan xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san'atga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, me'morlik, raqs va musiqa bilan hamoqangdir.

Bezak san'atining o'ziga xos estetik jiqtalarini tushunish uchun uning mavzui, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy taxnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o'ymakorligi — monumental, dastgoqli, predmetli-miqyos va turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalar, taqinchoqlar va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi monumental dekorativ rasmlar, vitrina, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda mebel buyumlaridagi o'ymakorlik va hokazolardir. Shakllari bir-biriga o'xshamagan bu

asarlarni o'zaro biriktirib turgan jiqat ularning asosiy vazifasi — insonni qurshab turgan muhitni estetik bezashdan iboratligidadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, dekorativ san'at turlari rang—barang bo'lsa ham, ularning ko'pchiligi amaliy—foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihatni bilan o'zaro bog'lanadi. Mana shu ma'noda dekorativ—amaliy san'at deyiladi. Biroq bezak san'atiga, yuqorida aytganimizdek, amaliy jiqatdan bevosita foydasi sezilmaydigan asarlar ham qo'shiladi. Masalan, zargarlik buyumlari, turli taqinchoqlar, o'ymakorlik buyumlari va boshqalar. Bularning hammasi rassomlik yoki haykaltaroshlikdan farqli o'laroq kundalik konkret muhitda, o'zlarining xususiyatlariga ko'ra konkret holatda foydalanilsagina estetik ma'no kasb etadi.

Inson yashayotgan va harakat qilayotgan muhitning nafosat boyligi ana shu muhitga olib kirilgan zeb—ziynat buyumlarining soni bilangina belgilanmaydi. Muhammi shundaki, bu zeb—ziynat elementlari mazkur muhitning hayotiy sharoitiga moslashib, uning ijtimoiy mazmuniga, odamlarning amaliy va ma'naviy ehtiyojlari vujudga keltirgan talablarga nechog'liq javob berishiga qarab baholanadi. Nafosat elementlari muhitni shunchaki bezabgina qolmasdan, balki uning badiiy obrazli mazmunini kuchaytirib, oshirib, rivojlantirib ham ko'rsatadi. Dekorativ san'at mana shu vazifasini san'atning boshqa turlari — me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik bilan birgalikda bajarsa, uning qimmati yanada ortadi.

Bezak san'ati asarlari vositalarida ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmunini dinamik tarzda o'zgartira olish mumkinligi ularning o'ziga xos xususiyatidir. Dekorativ san'atning shu xususiyatiga binolar, ko'chalarning bayramona bezatilishi misol bo'ladi. Bu bezaklar o'sha joylarning odatdagi qiyofasini ma'lum vaqtgacha o'zgartirib turadi. Bezak san'atining barcha turlariga oid asarlar, shu jumladan, ularga yaqin turuvchi grafik san'at asarlari ham ma'lum darajada mana shunday rolni bajarishi mumkin. Masalan, bayramona tabriklar yoki tasvir tushirilgan vimpellar.

Har bir tarixiy davr alohida g'oyaviy va axloqiy tasavvurlarni olg'a surib, kishilar ijtimoiy hayotining alohida ideallarini ifodalar ekan, takrorlanmas dekorativ

san'atni vujudga keltirgan. Bezak san'at asarlarida inson, jamiyat va davrning xarakterli hissiyotlari to‘g‘risida mavjud g‘oyaviy hamda axloqiy tasavvurlarni ifodalash san'atning rostgo‘yligi yoki ta'sirchanligining asosiy shartidir. Mana shu tamoyilga amal qilinmasa, badiiy maqsad hamda shaklni hal qilishda yasamachilik, asarda emotsional qiyofa bo‘lmashligi, formalizm vujudga keladi.

Bezak san'atning ta'sirli chiqishi uchun tasvirdagi realizm birdan–bir shart emas. Bezak san'at asarlariga qo‘yiladigan talablar talaygina. Shaklni ifodalashda ishlatilayotgan materiallarning, ko‘p hollarda esa usullarning o‘ziga xos jihatlari (o‘ymakorlik, to‘qimachilik buyumlari va boshqalar), o‘ziga xos tomonlari yaqqol ifodalanishi talab etiladi. Bezak san'atida umuman materiallar, ulardagи xususiy jiloning go‘zallik sifatlari ayniqsa muhim, ayrim hollarda yetakchi o‘rin tutadi. Bu holat bezak asarlar shakllarining o‘ziga xos jihatni bo‘lib, u asarlar mazmuni umumlashtirilganligi va mavhumligining natijasidir. Ularni ko‘pincha so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Biroq bu materialning ko‘rki bezak san'at asarlari mazmunidagi kamchilikni to‘ldirish, uni «bo‘yab ko‘rsatish» kerak, degani emas. Ijodiy vazifalarni bunday tushunilsa, har doim asarlarning kompozitsiyasida formalizm, mazmunan qashshoqlikka yo‘l qo‘yiladi.

Bezak san'atida qo‘llanadigan materiallarning estetik jiqtadan eng kerakli sifatlari — yorqinligi, rangi, fakturasi, hajmi, vazni yoki pishiqligi sanaladi. Bular yaratilayotgan shakllarning aniqlik darjasini, umumiyligi hajmning mutanosibligi va boshqalarda ko‘rinadi. Materiallarning mana shu sifatlarini nazarda tutib to‘g‘ri tanlanishi asar shakli va qiyofasini yaratayotganda bu sifatlardan to‘g‘ri foydalanish mazkur asar beradigan taassurotlarning (masalan, bayram, sport o‘yinlari, tantanalar va sh.k. ruhini) yorqinligini ta'minlaydi.

Intererni badiiy bezashda dekorativ–amaliy san'atning yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalilanadi. Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'atining ana shu turlarini qo‘llashdan maqsad ta‘lim va tarbiya maskani bo‘lmish o‘quv yurti intererining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘laroq yoritishdan, yoshlarda san'atga

qiziqish uyg‘otishdan va amaliy bezak san'at sirlarinidan voqif bo‘lishlari va bu san'atga yaqinroq bo‘lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Afsuski, ba'zi o‘quv yurtlarining intererini badiiy bezashda g‘oyat jiddiy nuqsonlar va kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi. Amaliy bezak san'atining sifatsiz va saviyasiz namunalari, tasviriy san'atning boshqa turlariga bevosita bog‘lanmagan ayrim stendlar, devoriy gazetalar, chaqiriqlar, e'lolar, portretlar intererning ko‘rinishini buzib turganini kuzatish mumkin.

Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'ati elementlarini qo‘llashda asosan quyidagilarni nazarda tutish shart:

- ❖ qo‘llanilayotgan dekorativ–amaliy san'at namunasi interer xarakteriga mos bo‘lishi kerak;
- ❖ auditoriyaning vazifasini;



### 1–rasm. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi.

elementlari tasviriy san'atning boshqa turlari bilan uzviy bog‘lanishi kerak (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika va me'morlik intererni badiiy bezashda bir–biriga garmonik bog‘lanmasa, hal qiluvchi omil bo‘la olmaydi).

Yuqorida ta'kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chiqqan qolda ish ko‘rish lozim.

- ❖ badiiy bezash ishlarida qo‘llanilayotgan dekorativ–amaliy san'at elementlari mavsumiy, ya'ni vaqtı–vaqtı bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bo‘lishi zarur;
- ❖ o‘quv yurtidagi badiiy bezash ishlarida qo‘llanayotgan amaliy san'at

Agar o‘quv yurti muzeyi, ko‘rgazmasi va ekspozitsiyalari haqida gap ketadigan bo‘lsa, eng avvalo, undagi fazo bo‘shlig‘i saqlanishi, eksponatlarni tomosha qilish uchun qulaylik yaratilishi lozim. Yana shuni ta‘kidlab o‘tmoqchimizki, badiiy bezash ishlarida dekorativ–amaliy san‘at elementlarini qo‘llash murakkab jarayon bo‘lib, ko‘r–ko‘rona qo‘llanilanadigan elementlar ko‘ngildagidek natija bermaydi. Ular avvalo yuksak badiylikka ega bo‘lib, auditoriya va intererlarning boshqa qismlarining vazifasiga, rang yechimlariga, undagi jiqozlar, mebellar va yoritilganlik darajasiga mos bo‘lishi kerak.



**2–rasm. Xotira va Qadrlash maydoni majmuasi.**

O‘zbekiston o‘quv yurtlarining intererlarini badiiy bezashda amaliy bezak san‘ting naqqoshlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi kabi turlari nisbatan ko‘proq qo‘llanilmoqda. Bu tabiiy hol, chunki dekorativ–amaliy san‘atning xuddi shu turlari qadimdan e’zozlanib, juda ko‘p binolarni bezashda qo‘llanib kelingan. Bunga Samarqanddagi Registon ansamblsi, Go‘ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xivadagi Islomxo‘ja minorasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi va boshqalar misol bo‘la oladi.

Hozirgi paytda ma'muriy, turar joy va boshqa binolarni badiiy bezashda amaliy san'tning yuqorida aytilgan turlari keng qo'llanilmoqda. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat akademik katta teatri, Toshkent Davlat sirki binosi kabilar fikrimizning yaqqol dalilidir. Toshkent metrosining «Xalqlar do'stligi» bekatida naqqoshlik, ganch o'ymakorligidan; «Kosmonavtlar prospekti» bekatida dekorativ devoriy suratlardan, «Chilonzor» bekatida sopol dekorativ figuralardan, «Alisher Navoiy» bekatida dekorativ-amaliy san'atning bir necha turidan foydalanilgan. Bunday ishlarni respublikaning boshqa shaqarlaridagi qator binolarda hamko'rish mumkin.

Shu yillarda Respublika maxsus ijodiy-ishlab chiqarish «Usto» birlashmasi, «Musavvir» va «Hunarmand» ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining tashkil topishi ayni muddao bo'ldi. Chunki, «Usto» birlashmasi a'zolari Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yirik-yirik inshootlar va qurilishlarda o'z ijodlari bilan ishtirok etib, binolarni badiiy jihatdan bezak ishlari ruhiyatni ko'tarib kelishayotgan bo'lsalar, «Musavvir»




**3-rasm. Qatag'on qurbanlari muzeyi.**

va «Hunarmand» ilmiy-ishlab chiqarish markazlari a'zolari o'z ijod namunalarini mazkur markaz orqali tarqatadilar. Shu tariqa markaz ustalarga metodik yordam ko'rsatadilar, ularning ijod namunalarini omma orasida, shuningdek, Respublika va xorij davlatlarida bo'ladigan yirik ko'rgazmalarda, tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlaydi va

targ'ib qiladi. Ushbu markazlar tufayli bugungi kunda qator ustalarimizning ijod namunalari xorij muzeylaridan va shaxsiy kollektiviyalardan o'rin olib kelmoqda.

«Xozirgi kunda yog'och o'ymakorligi san'ati o'zining o'tmishdag'i mavqeyini qayta tiklab, poytaxtimiz Toshkent shahrida va Respublikamiz viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa yirik shaharlarida bunyod etilib

foydalishga topshirilayotgan yoki qayta ta'mirdan chiqarilayotgan ko'plab diniy va dunyoviy xarakterdagi inshootlarda o'z aksini topib kelmoqda. «Usto» birlashmasi a'zolari tomonidan so'nggi yillarda ko'plab yirik ob'ektlar qurilib, binolarning eshigi, darvozasi va ustunlari yog'och o'ymakorligi san'atining eng so'nggi yutuqlaridan keng-ko'lamda foydalanaligan holda go'zal va jozibador qilib bezatmoqdalar. Masalan, 1989–92-yillarda Rossiyaning Voronij va Moskva shaharlariidagi «O'zbekiston» va «Namangan» savdo majmualari; 1993-yilda O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining qabullar uyi, Bekobod shahridagi metallurgiya kombinatining oromgohi; 1994-yilda «Yunusobod tennis» korti, «Turkiston» konsert zali va «Algoritm» zavodi; 1995-yilda O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi binosi; 1996-yilda Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1-rasm); 1997-yilda Oliy Majlisning yangi binosi, «Guliston» sport majmuasi; 1996–98-yillarda Toshkent shahar hokimligining yangi binosi, O'zbekiston Prezidenti Apparatining Matbuot markazi; 1998–99-yillarda O'zbekiston Prezidentining «Oq saroy» qarorgohi, Davlat «Sirk»i binosining eshigi, «Xotira va Qadrlash maydoni» (2-rasm) va «Shaxidlar maydoni» va «Qatag'on qurbanlari muzey» majmualari (3-rasm), «Sheroton–Toshkent» mehmonxonasi; 2000-yilda O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi binosi, O'zbekiston Respublikasining Hindiston, Germaniya, Malayziya (1993-yilda) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, shuningdek, Toshkent shahri Saylgoh ko'chasidagi choyxona ayvoni, Samarqand shahridagi Imom al-Moturudiy majmuasini, Chelak tumanidagi Imom al-Buxoriy majmuasini, Bulung'ur tumanidagi Juma masjidini,



**4-rasm. Farg'ona viloyati Yaypan shahridagi choyxona.**

Farg‘ona viloyatidagi Ahmad al-Farg‘oniy majmuasi, Yaypan shahridagi choyxonalari (4–rasm) shular jumlasidandir»<sup>4</sup>.

O‘quv yurtlarini badiiy bezashda dekorativ–amaliy san'at turlaridan naqqoshlik ko‘proq uchraydi. Naqqoshlik ishi yetakchi rol o‘ynovchi mustaqil vazifaga ega emas. U faqat badiiy bezash ishlarining badiiy sifatini boyitadigan, bo‘rttiradigan omil bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Badiiy bezash ishlarida qo‘llaniladigan naqqoshlik san'ati ham ta’lim–tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda ishtirok etadigan elementlar tabiat ne'matlari (paxta, barg, gul, g‘uncha, anor, bodom, nok, olma, lola, kurtak va hokazolar)ning stilizatsiyalashtirilgan shaklidir.

Bir qarashda dekorativ–amaliy san'at alohida emasdek tuyulsa–da, usiz intererni tasavvur qilish qiyin. Misol uchun, metallarga badiiy ishlov berish, payvandlash, bukish, chekanka qilish, qirqish, bo‘yash va loklash orqali intererning turli burchaklarida turadigan gullarga taglik, eshik va derazalarga panjara, to‘sinq va yoritgich kabi boshqa bezaklar yasash mumkin.

Bundan tashqari, badiiy bezash ishlarida kulolchilikdan ham keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, turli pannolar, rel'eclar, gultuvaklar, vazalar va hokazolar eng avvallo talabalarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda katta yordam beradi.

**Tayanch tusunchalar:** stend, rel'ef, kulolchilik, panno, gultuvak, vaza, lagan, element, mozaika, libos, mebel, o‘yinchoq, vitrine, vitraj, chekanka.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Badiiy bezash ishlarida amaliy san'atning o‘rni deganda nimani tushunasiz?
2. Bezak san'atida qo‘llanadigan materiallarning estetik jiqtadan eng kerakli sifati deganda nimani tushunasiz?
3. Bezak san'ati asarlari vositalarida ma'lum davr doirasida sharoitning badiiy obrazli mazmuni nima?

---

<sup>4</sup>Ахмедов М.Б. Ёғоч ўймакорлиги. –Т.: Адабиёт учқунлари, 132–133 б.

4. Badiiy bezash ishlarida amaliy bezak san'ati elementlarini qo'llashda asosan nimalarni nazarda tutish shart?



1. Badiiy bezash ishlaridagi amaliy bezak san'ati elementlarini o'rganish.

*Mustaqil ta'lim*

2. Dekorativ san'at turlari rang-barangligi, ularning ko'pchiligi amaliy-foydali ob'ektlarga: liboslar, mebel, o'yinchoqlar, vitrinalar, binolar va hokazolarga badiiy ishlov berish jihatni bilan o'zaro bog'langanligini o'rganish.

---

# I–bob. AMALIY SAN'AT

## I.1–§. O'ZBEK MILLIY SAN'ATIDA BADIY NAQQOSHLIKNING ROLI

### I.1.1–§. Amaliy san'at va uning turlari

Amaliy san'at xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan. Zero, o'zbek xalq hunarmandchiligining tarixiy ildizlari amaliy san'at asosida taraqqiy etib juda qadimiyligi, mumtoz hamda ota–bobolarimizning asriy tajribalarga tayanib o'zining serenum, serjilo, shu bilan bir vaqtida har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy merosimizni o'z ichiga oladi. Odamzotning yaxshi yashashga, madaniyatga bo'lgan ilk qadami ibridoiy davrdan boshlanganligini tarixiy manbaalardan bizgacha yetib kelgan ma'lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

Chunki, har bir mavzuda Vatanimiz madaniyati va san'ati durdonalarini o'rganish bilan birga o'tmish ajdodlarga bo'lgan mehr–muhabbat kuchayib, uni keljak avlodga o'rgatish xissi oshib boradi. Shu bilan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviyatimizdan boxabar bo'lib boramiz. Iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi esa insonning aqliy kamoli va ma'naviy rivoji uchun kuchli turtki berdi. Bu davrga kelib suv havzalari bo'yalarida o'z xususiyati jihatidan qishloq jamoalariga o'xshash jamoa manzillari ko'paya bordi. Xorazm va Buxoro havzalarida esa ovchilarning o'ziga xos madaniyati shakllandi. Kaltaminor madaniyati miloddan avvalgi VII–III–minginchi yillarga neolitning so'nggi va bronza asriga to'g'ri keladi. Bu madaniyat Jonbosqal'a balandliklari yodgorliklarini o'z ichiga olib katta hududni tashkil qiladi. Bu yerda chayla tipidagi turar joy topilgan. Bu turar joyda bir qancha oila guruhi yashagan. Kaltaminor madaniyatida kulolchilik rivojlangan. Ularning shakllari rang–barang.

Neolit davrida yangi usullar — silliqlash, parmalash, arralash usullarini ixtiro etdilar. Toshdan boltalar yasalgan, kulolchilikda ayollar dastlabki yumaloq idishlar yasaganlar, keyin bu ishni erkaklar bajarganlar. Jundan ip yigirib matolar to‘qiganlar, yopinchiquqlar o‘rniga kiyim–kechaklar to‘qiganlar. Dehqonchilik madaniyati vujudga kelgan. Miloddan avvalgi V–III–ming yilliklarda Xorazm va Buxoro vohasi hududlarida Kaltaminor madaniyati vujudga kelgan. U yerdan topilgan idishlarni tagi yumaloq, sirti chizma naqshlar bilan bezatilgan.

Turli xil sopol idishlar — ko‘za, kosa va cho‘michga o‘xshash idishlarning yuzasiga turlicha yo‘nalgan siniq chiziqlar naqsh hosil qilish vositasi sifatida keng ishlatilgan. Bu madaniyatga oid sopol buyumlar yuzasi o‘yma va chizma naqshlar bilan bezatilgan. Turmush, tirikchilik hamda uy–ruzg‘or taqozosi talabalari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo‘lgan asbob–anjoblar yashash hamda ularni har xil ko‘rinish va shakllarda ijod etish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda, shu bilan bir qatorda katta kuch talab qilmay yashash mumkin bo‘lgan va yillar o‘tishi bilan ularning zamon talabalariga moslanishi, yangicha nusxa va ko‘rinishlarda ijod etilishi o‘z davrining mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan.

Madaniy merosimiz hisoblanmish mahobatli me'moriy obidalar, noyob va go‘zallikni o‘zida tarannum etgan zebu–ziynatlar, har xil ro‘zg‘or anjonlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san’atiga mansub bo‘lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi bo‘lib kelmoqda. Shu boisda xalq ustalari yaratgan noyob asarlarga e’tibor yanada kuchaymokda. Usto bobokalonlarimizning hayotiy va ijodiy yo‘lini o‘rganish, ularning sermahsul an'analarini bilish, ular yaratgan uslub va yo‘llarni yanada takomillashtirish bugungi davr talabi. Qadimshunos va tarixchi olimlarning tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan.

Bu markazlarda, yukorida ta'kidlaganimizdek, xalq ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab chikarilgan va bozorlarda sotilgan. Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon, Namangan viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shahrixon, Buxoro viloyatida G'ijduvon, Buxoro shahri, Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surxondaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir. Bu shaharlarda hunarmandlar alohida-alohida yoki to‘p-to‘p bo‘lib yashashi natijasida har bir mahalla muayyan kasbiy hunar nomi bilan atalib kelingan. Bular misgarlik, to‘qimachilik, po‘stindo‘zlik, yo‘rmado‘zlik, pichoqchilik, zargarlik,

ko‘nchilar, mahsigarlar, do‘ppido‘zlik, tandirchilar va o‘nlab boshqa turdagি hunar nomlarini misol qilish mumkin.

Bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150000 dan ziyod turli kasb egalari va hunarmandlarni olib kelib, ular uchun shaharlarda va ayrim qishloqlarda hunarmandlar mahallarini tashkil qilganlar.



**5-rasm. Tosh o‘ymakorligi san'atidan namuna.**

Bunday harakat va uzoqni ko‘ra bilish albatta Movaraunnahrning moddiy-madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgan reja bo‘lgan. Albatta bunday jamoatchilik an'analariga tayanish, maxsus mahallarda yashab bir-birlari bilan yaqindan kasbiy-ijodiy aloqada bo‘lish o‘zi va hamkasbining shaxsiy manfaatini qo‘llab-quvatlash, kerak bo‘lsa uni kezi kelganda qo‘llash maqsadini olg‘a surgan.

O‘tmishda mamlakatimizning ba'zi bir sarhadlarining tarixiy va etnik rivojlanish sharoitlari o‘zlarining xududiy xususiyatlariga ega bo‘lib, xalq amaliy san'ati hamda hunarmandchiligidagi o‘scha zaminning tabiatni, iqlimi, hayvonot va nabotot olami, shuningdek, mahalliy, tub axolining yashash tarzi, urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari asosida mahalliy maktablarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Bunga misollar talaygina. Masalan, erkakmi yoki ayol bo‘lsin boshidagi do‘ppisining guli yoki ustidagi kiyimiga, ko‘p hollarda kiygan tuniga qarab o‘tkinchining qaysi hududdan ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Xalq amaliy san'atining naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi, tosh o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi, kashtachilik, zardo‘zlik, zargarlik, misgarlik, do‘ppichilik, xattotlik, bo‘yrachilik, pichoqchilik, gilamchilik, matoga gul bosish, chitgarlik, ko‘nchilik, kulolchilik, kandakorlik, savatchilik, taqachilik, beshikchilik, shishasozlik, kigizchilik, jiyakchilik, koshinkorlik, to‘qimachilik kabi 150 dan ortiq turi mavjud.

Tosh o‘ymakorligi toshni o‘yib, yo‘nib, tirnab naqsh yoki biror tasvir ishslash kasbi bo‘lib, toshtaroshlik yoki sangtaroshlik deb ham yuritiladi (5–rasm). Tosh o‘ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri hisoblanadi. Bu san'at kishidan iste'dod va intilishdan tashqari mehnatsevarlik va g‘oyatda zo‘r sabr—toqat talab qiladi. Toshni o‘yib ishslashning chiziqli o‘yma, zanjira o‘yma, yassi o‘yma, chuqur o‘yma, panjarasimon o‘yma va hajmli o‘yma turlari bor.



**6–rasm. Panno. Marmar.**

Tosh o‘ymakorligida ishlatiladigan materiallar o‘rni, maqsadi hamda vazifasiga qarab yumshoq, o‘rtacha qattiqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi. Yumshoq toshlarga gipstosh, ohaktosh, o‘rtacha qattiqlikdagi toshlarga oniks, porfir, ohakli marmar, marmar (6–rasm) va qattiq toshlarga lazurit, amozon, agat, malaxit, jident, nefrit, yashma va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko‘za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi.

Yurtimiz sarhadlaridagi vodiy va tog‘lar insoniyat taraqqiyotidagi uzoq o‘tmishda moddiy madaniyatning o‘chog‘i hisoblangan. Tabiiy g‘orlarga,

qoyalarga tushirilgan rasmlar (petrogliflar) qadimiy yodgorliklar tarixidan dalolat berib turibdi. O'yib ishlangan tasvirlarni qoya toshlarda va so'qmoq hamda daryo yon bag'ridagi toshlarda ko'rish mumkin. Tosh asrida ovchilar faqat hayollariga kelgan shakllarni o'yib, chizib tashlamasdan, balki, voqe'likni aks ettirganlar.

Qadimgi avlod—ajdodlarimizning qoyalarga hamda toshlarga ishlagan tasvirlari o'tmish kishilarining hayoti, turmush tarzi, an'analarini va qadriyatlarni o'rganishda noyob hujjat bo'lib xizmat qiladi. Insonlar mehnat faoliyati davomida qadimdan turli toshlardan foydalanib kelgan. Ular vulqonlarning otilishi yoki zilzilalar tufayli vujudga kelgan o'tkir qirrali toshlardan mehnat quroli vositasi sifatida foydalanganlar. O'tkir qirrali toshlardan go'sht maydalashda, yog'ochni yo'nishda, chopishda, tilishda va boshqalarda foydalanilgan.

Poleolit davriga kelib esa tosh asosiy mehnat quroliga aylandi va undan keng miqyosda foydalanganlar. Shuningdek tosh qurilishda asosiy material sifatida xizmat qildi. Odamlar toshni turli navlaridan qurol va asboblar, uy—ro'zg'or buyumlari va bezak ashylari sifatida foydalanganlar. Qadimiy O'rta Osiyo hududlarida istiqomat qilgan odamlar qimmatbaho toshlardan turli bezak buyumlari tayyorlaganlar va insoniyatga bezak vositasiga aylandi. Bu yerlarda turli toshlardan tashqari yog'och, ganch juda ko'p bo'lgan. Geografik sharoiti taqozosi bilan me'morchilikda bezak sifatida toshlardan juda kam foydalanilgan. Bundan tashqari islom dini jonli mavjudotni tasvirlashni man etganligi haykaltaroshlikni rivojlanishiga katta to'siq bo'lgan. Ammo yirik monumental binolarni bezashda asosan marmar va xarsangtoshdan foydalanib kelganlar.

I—III—asrlarda O'zbekistonning janubida binolarni ustunlari hamda poydevorlarni bezashda xarsangtosh, marmartosh va ohaktoshdan foydalanganlar. Fayoztepa, Ayrитом, Qoratepa kabi xarobalardan ko'rinish turibdiki, marmar va xarsangtoshdan bezash ishlarida keng foydalanilgan. Toshni kesish, unga badiiy ishlov berish sirlari to'g'risida Sharq mamlakatlarida risolalar yozib qoldirilgan,

XV–asrda O‘rtta Osiyoda ayniqsa, toshtaroshlik rivojlandi va takomillashdi. Masalan, Amir Temur, Ahmad Yassaviy maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqalar jozibador qilib bezatildi.

Poyustun — aksariyat, mahalliy me'morchilikka xos arxitektura detali bo‘lib, ustun o‘rnatiladigan asos, tagkursi (7–rasm). U yog‘och ustunlarni chirishdan saqlaydi hamda ularning balandligini ta‘minlaydi. Poyustun marmarni, toshni o‘yib ishlangan naqshlar islamiy, geometrik, chiroyli yozuvlar, naqshu nigoralar bilan bezatilgan.



**7–rasm. Poyustun.**

Ayniqsa, Xivadagi Toshhovlida kishiga zavq bag‘ishlaydigan poyustunning ajoyib namunalari bor. Bu esa tosh o‘ymakorlik san’atining yuksak darajada rivojlanganligida dalolat beradi. Nurota va G‘ozg‘on qishloqlarida marmardan idishlar, ya‘ni lagan, piyola va boshqalar tayyorlash avj oldi<sup>5</sup>.

Kulolchilik san'ati esa asrlar davomida qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratib, undan nafaqat uy-ro‘zg‘or

buyumi sifatida, balki Sharqning eng qadimiyligi hamda navqiron san'at turlaridan biriga aylangan amaliy bezak san'ati turlaridan biridir (8–rasm). Bu qora loy, sahovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha extiyojni qondira oladigan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir–biridan farq qiladi. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega.

<sup>5</sup>Masharipova S.A. San'at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. –T.: TAQI, 2013.

Sopol buyumlari sodda bo‘lsada uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish–tovoqlar yasab, gulkanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug‘ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi III–ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin bu san’at turi bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish–tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.



**8–rasm. Kulol Sh.Azimov ijodi.**

Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo‘yilgan. Enolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivojlangan va me’morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. VIII–XII–asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O‘rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo madaniyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya’ni Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniylari maqbarasi qurildi.

XIII–asrda mo‘g‘ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong‘in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV–asrdan boshlab O‘rta Osiyo sarhadlarida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go‘zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar quzdirdi. Amir Temur vafotidan so‘ng o‘zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o‘zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlandi. O‘rta Osiyoda suvga bo‘lgan ehtiyoj katta bo‘lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli–tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX–asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko‘plab olib keltirilishi O‘rta Osiyo hududlarida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to‘sqinlik qila olmadi.


XIX–asrda O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisbz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930–yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932–yilda Toshkentda o‘quv–ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib u yer xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943–yilda Shahrisabzda o‘quv–ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi. Kulolchilik sir–asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga

sitqidildan o‘rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g‘ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliev, shahrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov va boshqalar shular jumlasidan. Ko‘pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. O‘tgan asrning 40–yillarda G‘ijduvondagi «Namuna», Rishtonda «Yangi hayot» artellari faqat mamlakatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur bo‘ldi.

Ayniqsa, kulolchilikni tatbiq etishda O‘zbekiston xalq rassomi, san’atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o‘ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san’atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Ganch o‘ymakorlik san’ati ham qadimiyligi san’at turlaridan biri hisoblanadi. Salavkiylar va undan keyingi Grek–Baqtriya podsholigi davrida Markaziy Osiyoning



**9-rasm. Ganch o‘ymakorlik san’atidan namuna.**

ishlatilsa ham, lekin shu bilan birga qumtosh, marmar va pishiq g‘isht hayotga keng ko‘lamda kirib kela boshladi, devor pardoziga maxsus qorishmalar, alebastrli qoplamlalar ishlatila boshlandi.

Ganchkorlik O‘rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg‘oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me’morchiligidagi o‘zini namoyon qilib kelmoqda. Ayniqsa, O‘rta Osiyoda yaratilgan asarlar o‘ziga xos badiiyligi, kompozitsiyasi va ishlanish uslubi

janubiy hududlarida me’morlik komplekslari yuzaga keladi, shaharsozlik yangi davrni boshidan kechirdi (9–rasm). Me’morlikda yangi g‘oyalar rivojlandi, yangi–yangi shaharlar barpo etildi. Me’morlik san’atida avvalgidek asosan xom g‘isht asosiy qurilish materiali sifatida

bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'r kamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardagi obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatlardan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan–avlodga o'tib tarixiy an'ana sifatida rivojlanib borayapti.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi, o'rtalarda rivojlanishini ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir–biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III–asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalarini o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi IV–III–asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa, gorelefli ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasini ko'rsatish mumkin.

X–XI–asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlangan. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan qismiga ham qo'yilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g'isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X–XI–asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Ayniqsa izora (panel) ganchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2–3 sm

bo‘lgan, naqsh qoramtil soya hisobiga aniq oppoq bo‘lib ko‘rinib turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devor sirtiga to‘ppa-to‘g‘ri chizilib o‘yilgan. O‘sha davr ustalari axtadan (ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan.

III–asrlarda murakkab naqshlar paydo bo‘ladi. Ustalar tabiatdan o‘simlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib, ganch o‘ymakorligida ishlatganlar. Shu devorlarda o‘ymaning chuqurligi *7 mm* dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch o‘yma ishlatilgan. Farg‘ona vodiysida XII–asrda bezak sifatida har xil plitkasimon o‘yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch bilan bezatish keng avj olganligini ko‘rsatadi. O‘zgan yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, o‘rta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravoqlari juda ham nafis o‘yma naqshlar bilan ishlangan.

Termiz maqbaralaridagi ganch o‘ymakorlik san’ati o‘sha davrning yuqori cho‘qqisi desa bo‘ladi. XII–asrda muqarnaslar hosil bo‘ladi va ko‘pgina binolarda ishlatila boshlangan. Muqarnaslar oddiy ganch o‘ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo‘llanila boshlandi. Binolarnig ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII–asrda ganchkorlik san’ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o‘ymakorligi ishlari misol bo‘la oladi. XIV–XVIII–asrlarda binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san’atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi–yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o‘ymakorligi, uzviy bog‘langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o‘yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta sekin minoralarning ichki qismiga qo‘llaniladigan bo‘ldi. Uning tashqari qismiga esa juda kam qo‘llanildi. Ganch o‘ymakorligida mashhur bo‘lgan XVIII–asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o‘sha vaqtida xalqqa tanilganlardan. Muxammad Muso o‘g‘illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlagan, g‘isht terishda ham obro‘ qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashagan davri XVIII–asrning oxiri — XIX–asrning boshlari bo‘ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch

o‘ymakorliginig barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo‘yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompazitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi va Xivada o‘ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o‘ymakorligi texnikasi kishini qoyil qiladigan darajada o‘sdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari juda ham nafis, Marg‘ilonning guldar bezaklari yaxlit ko‘rinishga ega, Toshkentniki esa qat’iy va ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o‘yma naqshlari o‘ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi.

XIX–asrning boshlarida buyuk ganch o‘ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usto G‘ofir, Usta Ibrohim, Usta Savri, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat ko‘rsatdilar. Asr boshlaridagi ishlar esa o‘yma rel’efli juda muayyan uslub texnikasi paydo bo‘ldi. Rangli ganchlar, bo‘yoqlar, naqsh va tasvirlar qo‘llaniladigan bo‘ldi. Boylar, xonlar va amaldorlar o‘zlariga saroylar, bog‘lar va qasrlar qurdirib, ularni o‘yma ganch bilan bezattirdilar.

XX–asrning boshlarida diplomat amaldor A.Polovtsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to‘garagiga a’zo bo‘lib, Sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchun u qiziga yevropacha uy qurdirdi. Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A.Polovtsev o‘zbek xalqi san’atini yaxshi biladigan etnograf M.S.Andreevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o‘zbek xalqi san’ati namunalarini yig‘ib, ularni o‘rganishga hayotini baxsh etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari



**10–rasm. Ganch o‘ymakorlik san’atidan namuna.**

Farg‘ona, Buxoro, Qo‘qon va boshqa shaharlardan ganch o‘ymakorlar, yog‘och o‘ymakorlar va naqqoshlar taklif qilingan edi. Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo‘lat Arslonqulov va boshqa ganch o‘ymakorlar ham bor edi. M.S.Andreyev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g‘arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi.

1902–1903–yillarda yevropacha qurilgan uy o‘zbek milliy bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o‘ziga xos xarakterda bo‘lib, o‘yma naqsh kompazitsiyasida katta shohbarg va to‘pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozning hamma turlari qo‘llanilgan. Devorlarga o‘yilgan ganch o‘ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan, atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islimi hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o‘sayotgan tabiat o‘simpliklarini eslatadi.

Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug‘lik hisobiga juda o‘rinli tanlangan. Derazadan tushadigan yorug‘lik o‘ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi xoh uzoqdan xoh yaqindan qaramasin, u o‘ziga xos jozibaga ega ekanligini ko‘radi. Albatta, ularni ustalar avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go‘zal tabiat manzarasinig nafis tasvirini eslatadi. O‘yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX–asmning boshlaridagi eng ko‘zga ko‘ringan arxitektura yodgorligi bo‘lib qoldi.

1913–1914–yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Mohi–Xosa qurildi. U ganch o‘ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxonasi o‘sha davrdagi ganch o‘ymakorligining ajoyib namunasi desa bo‘ladi. Bunda oyna zaminida ganch o‘ymakorligi bajarilgan. U o‘zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. O‘sha davrda eng ko‘zga ko‘ringan ganchkor ustalardan edi.

Ma’lum o‘lchamga mo‘ljallab, ikki qavat, ya’ni ganch va gul ganch qilib qo‘yiladi. Ganch plita tayyor bo‘lganidan keyin uning ustiga naqsh kompozitsiyasi

axta va xoka yordamida tushiriladi yoki qo'lda qora qalamda to'g'ridan-to'g'ri chizish mumkin. Naqshning o'yiladigan chegara chiziqlarini skalpelda tirnab kesib chiqiladi. Chunki ganchni o'yish jarayonida chiziqlar o'chib ketisha yoki o'yma noto'g'ri o'yilishi mumkin. Naqsh zaminini skalpelda o'yib, iskana yordamida uning zmini tekislab chiqiladi. O'yma relefiga mos pardoz turi beriladi. Masalan, pax pardoz, choka pardoz, lo'la pardoz yoki tabaqa pardoz. Ayrim hollarda kompozitsiyada bir necha pardozni birdaniga qo'llash ham mumkin. Ishning so'nggida o'ymaning chetiga ishlangan zanjirani o'yib pardoz beriladi<sup>6</sup>.


Amaliy bezak san'tining keng tarqalgan turlaridan yana biri yog'och o'ymakorlik san'atidir (11–rasm). Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlargacha chizib, kesib, yo'nib, o'yib ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O'rta Osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan. Bu o'ymakorlik qadimiylar arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

V–VI–asrlarda yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloqtepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1–1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda yog'och o'ymakorligi san'ati bo'lib, u juda yaxshi rivojanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalar natijasida topilmoqda. VII–asrning oxirigacha mahalliy o'zbek xalqi ichida yog'och o'ymakorlik juda tez sur'atlar bilan rivojlangan edi.

---

<sup>6</sup>Bulatov S.S., Muxtorov A. Ganchkorlik san'ati. –T.: Musiqa, 2006.

IX–X–asrlarda O'rta Osiyoda, shuningdek mamlakatimiz hududlarida madaniyat o'sa boshlaydi. IX–asrda Samarqand mustaqil davlat bo'lib qoldi. Xalq madaniyatida yangi burilish bo'ladi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular Abu Ali ibn Sino, Ro'daki, Firdovsi, Beruniy va boshqalardir. Ajoyib arxitektura yodgorliklari yaratiladi. Masalan, jahonga mashhur Ismoil Somoniy maqbarasi shular jumlasidandir. Madaniyatning



**11–rasm. Yog'och o'ymakorlik san'atidan namuna (K.Valiyev ijodi).**

rivojlanishi yog'och o'ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keldi. Yog'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq va har xil xontaxtalar bezatildi. Har bir o'yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. Ular bu murakkab naqshlar orqali voqe'likdagi eng go'zal tilaklarni aks ettirib kelganlar.

XI–XII–asrlarda xalq amaliy san'ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo'lgan geometrik naqsh, ya'ni girih naqshi bezakda yetakchi o'rinni egalladi. Arxitektura, uy ro'zg'or buyumlari yanada badiiy, nafis qilib bezatildi. Girih naqshi yanada rivojlandi. Masalan, XII–asrga oid yog'och o'ymakorligi namunasi Samarqanddagi Shohi–Zinda devorining orasidan topilgan bo'lib, u o'zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIV–asr o'rtalarida Shayx Sayfuddin Boxarziyning dahmasiga ishlangan yog'och o'ymakorligi naqshi topildi. San'atning ustki qismida o'rnatilgan yog'och taxtasidagi o'ymalar shunday o'yilganki, o'yma naqshning nafisligi, uning murakkabligi, tabiiylici, dinamikligi, juda sifatli o'yilganligi kishini hayratga soladi. O'ymani bajargan ustaning naqadar nozik didli, kuchli nazariyotchi hamda amaliyotchi, yetuk usta ekanligi o'z–o'zidan ko'rinish turibdi. Undagi naqshlarning erkin, nozik harakati inson ruhini ko'taradi.

Yog'och o'ymakor ustalar har xil buyumlar, xontaxta, eshik, darvoza, ustun va boshqa narsalarni bezashga jalb qilindi. O'ymakorlik ishlari mexanizatsiyalashtirildi. Toshkent va Frunze shaharlarida hunarmandchilik o'quv ishlab chiqarish kombinatlari tashkil etildi. O'quv ishlab chiqarish kombinatida juda ko'pchilik tahsil olib, usta bo'lib yetishib chiqdilar.

«Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirg'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda «qizil ko'lanka» ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. Hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatları to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzandlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Haydar Najmuddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Haydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini mакtabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar. Keyinchalik esa o'z uslubi, yo'nalishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand,

Buxoro, Toshkent va Qo‘qon kabi yirik yog‘och o‘ymakorlik maktablari rivoj topdi»<sup>7</sup>.

O‘zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan yana biri kandakorlikdir (12–rasm). Kandakorlik deganda metalldan yasalgan badiiy buyumlarga o‘yib yoki bo‘rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. O‘zbekiston sarhadlarida joylashgan shaharlarida metalldan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo‘lib, bu san'at o‘zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Savdo–sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo‘lgan. Bu asarlar ramziy ifodalarning yangi uslublari hamda g‘oyalarini tarqatish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Mahalliy san'at asarlari qo‘shti mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimda buyum yasash urf bo‘lib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o‘rta asr kandakorligi asosan hallangan kumush buyumlarda o‘z ifodasini topdi.

XI–asrdan boshlab kandakorlik mahsulotlarini mis hamda mis qotishmalaridan tayyorlay boshladilar. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi III–asr oxiri hamda II–asr boshlarida birinchi (maxsus mis qotishmasi) to‘g‘nag‘ichlar Misr, O‘rta yer dengizi, Mesopotamiya, Hindiston, O‘rta Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To‘g‘nag‘ichlarda kichik–kichik



**12–rasm. Kandakorlik san'atidan namuna  
(T.Qosimov ijodi).**

<sup>7</sup>Ахмедов М.Б. Ёғоч ўймакорлиги. –Т.: Адабиёт учқунлари, 2017, 11 б.

voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni ming yillikning o'rtalarida kandakorlik «hayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotladi.

IV–asrda O'rta Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviriy va amaliy san'atning mahalliy an'analarining tarqalishiga imkon yaratdi.

III–VIII–asrlarda, ya'ni so'nggi antik va ilk o'rta asr davrida O'rta Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topdi. Qimmatbaho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'y tomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi.

VI–VII–asrlarda badiiy metall buyumlar yuksak texnik sifatda bajarilganligiga Anikov lagani misol bo'la oladi. Bu laganda qal'a darvozasi oldidagi sahna tasvirlangan, «Yakkama–yakka olishuv» voqeasi tasvirlangan kosa o'sha davr hayotidan bir parcha bo'lib, undagi o'ymaning mayinligi, aniq nafosati, kompozitsiyasi, ta'sirchanligi, kuchliligi bilan mashhurdir.

IX–X–asrlarda islom dini O'rta Osiyo viloyatriga kirib borishi munosabati bilan turli xalqlarning san'ati an'analarini o'zida mujassamlashtirgan yangi g'oyaviy uslub paydo bo'ldi. Musulmon Sharqda birinchi va mis buyumlar ko'p tarqalgan bo'lsa–da keyinchalik ular o'rnini kumush va oltin metallar egalladi.

Qimmatbaho metallardan qilingan idishlar islom dini dunyosining ko'pgina burchaklarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p narsalar ishlanar, binolarning bezaklariga oltin suvi yogurtirilar edi. Keyinchalik esa xom ashyo sifatida bиргина qimmatbaho metallarning o'zi kifoya qilmay hiyla arzon materiallar mis va uning turli qotishmalari ishlatildi. Qizil misdan har xil ko'zalar, dekchalar, idish–tovoqlar, jezdan va sariq misdan qalamdonlar, oq mis hamda brinjidan ko'zalar, kir tog'oralar, katta–kichik piyola va shu kabilar yasalar edi.

Yuqorida aytib o‘tilgan materiallardan yasalgan buyumlar oltindan juda kam farq qilar edi. Shoir Nosir Xusrav asarlarida brinjidan qilingan ko‘zani ko‘rib qolgani, uni oltindan hech farq qilmasligini bayon qilib o‘tgan edi.

XI–asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyo xalq amaliy san'atida katta burilish bo‘ldi. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi, mis va uning qotishmalaridan yangi–yangi buyumlar paydo bo‘ldi, to‘g‘ri to‘rburchakli barkashlar, qorni sharsimon hamda bo‘yniga naqsh solingan ko‘zalar, siyoqdonlar, hovoncha va boshqalar juda ko‘p ishlatilar edi. Bu buyumlarning yuzalariga bo‘rtma kandakorlik usulida naqsh ishlash kamayib borib, uning o‘rniga o‘yib naqsh ishslash (gravyura) urf bo‘lib qoldi. Ishlangan bezaklar IX–X–asrlarda beo‘xshov qo‘pol shaklini yo‘qotib juda chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ldi.

IX–XII–asrlarda kandakorlik san'atida ham katta yangilik bo‘ldi. Idishlarni bezashda yozuvli naqshlar keng miqyosda qo‘llanildi. Qadah va idishlarga har xil yozuvlar masalan, shon–sharaf, omad, baxt–saodat, farovonlik degan naqshli yozuvlar «kufiy» va «nasx» usulida bitilgan. Bu yozuvli bezaklar shunday rivojlanib juda mayda, juda nafis bo‘lib, hattoki ularni o‘qiy olish qiyin edi.

XIII–XV–asrlarda kandakorlar bezaklarga kumush va oltin iplarni qadab zeb berib, naqshlarni judayam nafis bo‘lishiga harakat qilishgan. Registon maydoni yaqinida topilgan xazinalar, ya’ni oltmishdan ziyod turli–tuman idishlar, piyolalar, ko‘zalar, qopqoqlar, tagliklar, qozonchalar kandakorlikning XIV–XV–asr badiiy an'analari to‘g‘risida ma'lumot bergen. XIV–asrda metallga badiiy ishlov berishda jiddiy siljish bo‘ldi. Temur o‘z davrida xalq hunarmandchiligi rivojlanishiga katta e'tibor berdi. Temur va temuriylar avlodi hukmronlik qilgan davrda buyumlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlandi. Bu davr xalq amaliy san'atining barcha turlarida badiiy uslubning o‘zgarishi bilan xarakterlidir. Metall buyumlarni bezash yanada o‘zgardi, o‘sdi. Buyumlar naqshlari yanada badiiylashdi, noziklashdi, mayda islimiy naqshlar, yozuvli naqshlar yanada ko‘p ishlatildi. Masalan, Ermitajdagi shamdonlar, halqa, yetti xil metalldan quyilgan qozonlar misol bo‘la oladi. Shamdonlar, sadaf suyak qadab ishlangan eshiklar uchun qilingan nafis halqalar o‘simliksimon gullari zaminida yaratilgan. Bu

yozuvlarda shamdonlarning ishlangan vaqt (1397–yil) va usta Izaad Din Isfaxoni nomi bitilgan. Qozon o’simliksimon naqsh va yuksak badiiy husnixat yozuvi bilan naqshlangan. Bu afsonaviy qozon dunyoda yagona bo‘lib, uni tabrizlik Abdulaziz ibn Sharofiddin rixtagar yaratgan.

Mamlakatimizdagi qazilmalardan topilgan metall buyumlarda chet ellik ustalar nomini uchratish mumkin. Chunki Temur yurishlari vaqtida chet ellardagi ustalarni ko‘chirib Samarqandga olib keltirgan. Ular o‘z asarlarida mahalliy badiiy did va qarashlariga bo‘ysungan.

Ispan elchisi Klavixoning esdaliklarida Amir Temur qabulida va ziyofatida bo‘lgan vaqtida ko‘rgan ajoyib idishlarni yuksak darajada bajarilganligi haqida aytib o‘tgan. O‘sha davrlarda Samarqand, Buxoro va Xivada yuqori sifatli va bejirim metall buyumlar ishlab chiqilgan.

XVIII–XX–asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan bo‘lib, Buxoro, Qo‘qon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar aylangan. Boy xonadonlar naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Ular xonadon sohibining davlatmandligini namoyish qilib turgan. XIX–asr o‘rtalarida voprushlar paydo bo‘lgan. Farg‘ona vodiysida do‘kondor Buxoro va Toshkentda esa voprush (olibsotar)lar deb yuritiladi. XIX–asr o‘rtalaridan boshlab voprushlar hunarmandlardan buyumlarni arzon baholarga sotib olar edilar. Ularni savdogarlarga oshirilgan narxda o‘tkazganlar yoki bozorlarga olib borib sotganlar. Ular xalq amaliy san'ati ustalarining tayyorlagan gilam, oftoba, quticha, qilich, har xil idish va boshqalarini xalqqa yetkazib berishda «Savdo vositachilari» rolini o‘ynaganlar. O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi fabrika mollarini kelishi va uni shu yerda ishlab chiqarilishi mahalliy hunarmandchilar ishiga jiddiy ta'sir etdi. Shuning uchun ham hunarmandlar talabiga bo‘lgan ehtiyoj pasayib ketdi.

O‘zbek milliy kashtachiligi (kashtado‘zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan (13–rasm). Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan

tikilgan kirpech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg‘ona vodisida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang–barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va



yo‘zma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb–hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san‘atining eng qadimiysi saqlanmagan.

XIV–XV–asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida

### **13–rasm. Kashtado‘zlik san‘atidan namuna (M.Hamdamova ijodi).**

o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467–yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

XIX–asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko‘p ishlab chiqarilishi ularning badiyiligiga putur yetkazdi. Qo‘l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O‘zbek kashtachiligi qo‘shni xalqlar kashtachiligi ta’sirida boyidi va rivojlandi. O‘zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg‘on, Qozoq, Qirg‘iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Bu san‘atda har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari bo‘ladi. Chunonchi o‘zbek kashtalarida o‘simpliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko‘p bo‘lsa, rus kashtachiligidagi geometrik, o‘simpliksimon

shakllar, gullar, qush va mevalar ko‘p tasvirlanadi. Hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko‘ra, o‘zbek qizlari — bo‘lajak kelinchaklar seplari — har xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo‘lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7–9 yoshidan boshlab kashta tikishga o‘rgatilardi. Ular uch, to‘rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o‘zining san'ati va tabiatiga ko‘ra go‘zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Kashtachilikning muhim turlaridan biri zardo‘zlikdir.



**14—rasm. Zardo‘zlik san'atidan namuna.**

Zardo‘zlik — hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi (14—rasm). Zardo‘zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vavilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan, zar, ipak va jun ip qo‘shib tikilgan rang–barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim–kechaklarni faqat imператор a'yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo‘zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san'atining rivojlanganligiga XV–XVII–asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san'ati kirib keldi.

Kichik Osiyo doirasida zardo‘zlik XIII– va XV–asrlarda ham rivojlandi. Xullas Vizantiya kaerga ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsa o‘sha yerda zardo‘zlik rivojlangan.

O‘rta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I–II–asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947–yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog‘ida o‘tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I–II–asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan. Abdurazzoq Samarqandiy «Hindiston safarnomasi» asarida 1442–yili Shohruk zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o‘rtasida turgan elchilarining sovg‘alari orasida zarbof kiyimlar bo‘lganligini aytib o‘tgan. 1465–yili «Ashratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o‘tgan. Hirotda yashab ijod etgan Vasfiy o‘zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo‘zlik kasbi to‘g‘risida bayon etgan.

XVII–asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX–XX–asr boshlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktabi yaratilgan. O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va boshqa joylarda zardo‘zlik mакtablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim–kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun tikilgan. Yuzlab qo‘li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan.

**Tayanch tusunchalar:** silliqlash, parmalash, arralash, usul, kiyim–kechak, zardo‘zlik, zarbof, ko‘za, dekcha, idish–tovoqlar, jez.

## MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Neolit davrida qanday usullar hayotga joriy qilingan?
2. Xalq amaliy san’atining qanday tur va janrlari bor?
3. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha eramizdan avvalgi III–asr oxiri hamda II–asr boshlarida birinchi maxsus mis qotishmasidan tayyorlangan to‘g‘nag‘ichlar qayerlardan topilgan?



*Mustaqil ta'sim* jihatlarini o'rganish.

1. Xalq amaliy san'atining tur va janlarini o'rganish.
2. Xalq amaliy san'atining tur va janlarining o'ziga xos

### I.1.2-§. Naqqoshlik san'ati

Orta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota–bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar naqqoshlar tomonidan



**15–rasm. Naqqoshlik san'atidan namuna (M.To'rayev ijodi).**

yaratilgan bo'lib, asrlar davomida shakllandi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil

yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zARB bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimdan shakillanib kelgan. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi<sup>8</sup>.

Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimal xalqlarida gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II-asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar. Xorazmdagi Tuproqqa'l'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI-VII-asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov,



**16—rasm. Arab yozuvidan namuna.**

<sup>8</sup>Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т.: Мехнат, 1991.

urish manzaralari hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan.

VII–asrning oxiri VIII–asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi.

Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo–afsunlar vazifasini bajardi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi.



**17–rasm. Arab yozuvidan namuna.**

IX–X–asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa

maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz tasvirlar, timsol, duo–afsunlar, tasbih va boshqalarni ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lган.

Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islimiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va

yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy printsiplari bir biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizda ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI–XII–asrlarda O'zbekiston hududida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.


XIV–XV–asrlarda O'rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy–ijtimoiy formatsiyasi davrida feudal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos bir iqtisodiy–madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzodga o'xhash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bog'liq bo'lgan Uyg'onish (Renessans) davri deb ataymiz.

XIV–XV–asrlarda Samarqandda tez sur'atlar bilan turli–tuman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha o'lkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zлari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O'sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy–estetik merosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketgan.

Temuriylar xonligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan yerlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig'di. U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib o'z hunarlarini va mahoratlarini namoyon etish imkonini berdi. Shu san'at turlari qatori naqqoshlik

ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko‘p bino, masjid, madrasa va boshqalar qad ko‘tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi.

Shaharlar atrofi bog‘u bo‘stonga aylantirildi. Xullas u o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi. Ayniqsa, tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobitu sayyoralar, tog‘lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi. O‘sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug‘lashdan iborat edi. Afsuski ko‘pgina urushlar oqibatida hozirgacha qasrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha yetib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan.



**18-rasm. Kundal naqsh namunasi  
(A.Ilhomov ijodi).**

**Kundal** — arxitekturada devorga bo‘rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo‘yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo‘rtma shakl oladi, ustidan bo‘yoq va zarhal beriladi. Zamin zarhalga, asosiy bo‘rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo‘yaladi yoki aksincha, bo‘rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo‘yaladi. XV-asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland masjidida jozibador namunalar saqlangan. O‘rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI–XVII–asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi Xo‘ja Zayniddin xonaqosi (XVI–asr), Baland masjid (XVI–asr), Abdulazizzon madrasasi (XVI–asr), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII–asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o‘zining badiyiligi, harakatchanligi, o‘ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo‘lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII–asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko‘zga tashlandi. Ayniqsa bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo‘lganligi sezildi.

XVI–XVIII–asrlar orasida o‘zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. Bu esa milliy naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ta’sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari vujudga kelish bilan san’atkorlar bu shaharlarga yig‘ila boshladi. Shu vaqtidan naqqoshlik xalq amaliy san’at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh hovli, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli — planli naqsh kompozitsiyalar paydo bo‘ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turaradi. Naqqoshlik san’atining rang–barang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o‘ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo‘ldi. Chunonchi Farg‘ona, Toshkent, Xiva, Samarqand va boshqalarni aytib o‘tishimiz mumkin. Ular o‘zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XIX – va XX – asr boshlarida turar joy binolari, mahalla masjidlari, saroy va o‘quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa, devorlar sirtiga daraxtlar, guldstalar, guldonli guldstalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N.K.Romanovlar saroyi, A.A.Povlovtsevning uyi, Marg‘ilondagi Saidahmadxo‘ja madrasasi va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbek binosining ichki qismidagi har bir me’moriy qismi o‘ziga xos ornamental bezak tipidan tashkil topgan. Interer, ya’ni xona devori uzunasiga 3

qismiga bo‘lingan, devorning pastki qismi izora (panel), o‘rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o‘rta qismi namoyonlar, manzaralar, katta–kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqalar bilan bezatilgan. Friz qismiga har xil geometrik va o‘simliksimon naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shift o‘rtasiga ganchdan ishlangan ajoyib karnizlar ishlatilgan, buni sharafa deb yuritiladi. Shiftning o‘rtasi o‘yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan, bu hovuzak deyilgan. Bunday hovuzaklarga islimiy yoki geometrik naqshlar, shuningdek turunjlar ishlatilgan. Xonaning hovuzaklariga silliq qilib vassajuftlar yarim silindrsimon tayoqchalarni yonma–yon terib chiqish natijasida to‘lqinsimon yuza hosil qilingan. U ko‘pincha umumiylangani rang yoki oddiy islimiy naqsh bilan bezatilgan. Bu bezaklar o‘zbek xonadonining ziynati hisoblangan.

Devorlardagi tokchalar, taxmonlar cheti, kitobalar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish–tovoqlar bilan bezatilgan. Uy–ro‘zg‘or buyumlariga naqsh berish yanada rivoj topdi. O‘rta asr miniatyuralari ham rivojlandi. O‘zbek xonadonlari sergul gilamlar, rang–barang adyol va choyshablar, idish–tovoqlar, naqshinkor xontaxtalar, devorlari manzarali namoyon, hashamdar shiftlar — bular hammasi birgalikda xalq bezak san‘atining butun bir serjilo asarini tashkil etadi. Uy–ro‘zg‘or buyumlari — xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, devoriy naqshlar, ularning rangin bezaklari bir–biri bilan qandaydir bog‘liqlikka egadir. Ana shu devorlarda yaratilgan naqshlar o‘zining mutanosibligi, puxtaligi, ranglarining uyg‘unligi, bichimi, nafisligi, badiiyligi bilan diqqatga sazovordir.

Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori masjid, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta‘mirlashni boshlab yubordilar. 30–yillardan so‘ng ko‘pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylari va boshqa joylarni yog‘och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1939–yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Bahor» kontsert zalini naqsh, ganch o‘ymakorligi, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatildi. 40–yillarda qurilgan Muqimiylangani musiqali drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog‘och o‘ymakorliklari bilan bezatildi.

Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari farg'onalik Saidmahmud Norqo'ziev, toshkentlik Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Tohir To'xtaxo'jaev, Jalil Hakimov, xivalik Abdulla Boltaev, S.Xudoyberganov, X.Rahimov, samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Husanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta hissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nihollari, anor butog'i, gulli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar.

XX–asrning o'rtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj topdi. Mashhur usta Chingiz Ahmarov mo'yqalamiga mansub devorlardaga manzarali monumental Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalari, O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otabobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

**Tayanch tusunchalar:** naqsh, naqqosh, naqqoshlik, barokko, gotika, roman, klassitsizm, kundal, zarhal, maqbara, madrasa, masjid, izora, friz, namoyon, qubba, hovuzak, vassajuft, tokcha, taxmon, kitoba, epigrafika, ibodatxona, monumental, mo'yqalam, meros, an'ana.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Naqqoshlik san'ati nima?
2. Kundal texnikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Zarhal nima?
4. Naqqoshlik san'atining rivojlanishida qaysi ustoz san'atkorlarning xissasi muhim deb o'ylaysiz?
5. Epigrafika deganda nimani tushunasiz?

1. Kundal texnikasini o‘rganish.
2. Epigrafikani o‘rganish.
3. Naqqoshlik san'atining rivojlantirish bosqichlarini o‘rganish.
4. Naqqoshlik san'atining rivojlanishiga xissa qo‘shgan ustoz san'atkorlarning hayoti va faoliyatini o‘rganish.

### **I.1.3–§. Naqqoshlik san'atida ishlataladigan asbob–uskunalar va materiallar**

Mashg‘ulotni boshlashdan avval uni yaxshi o‘tkazish uchun auditoriya jihozlangan bo‘lishi zarur. Jihozlar mashg‘ulotni metodik va didaktik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni ta‘minlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Xona keng derazali bo‘lib, unga quyosh nuri chap tomondan tushishi lozim. Xona doim quruq va toza bo‘lishi, xarorati 18–20 gradusda saqlanishi kerak. O‘qituvchi talabalar ishi ustidan to‘la nazorat qilib turishi va har bir talaba bilan individual ishlay olishi uchun xonada to‘la imkoniyat yaratilishi lozim. Xonada o‘quv qurollari va materiallar, ko‘rgazma materiallar hamda talabalar ishlarini saqlash uchun shkaf yoki tokchalar bo‘lishi zarur.

Talabalar mashg‘ulot paytida asbob–uskunalardan foydalanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko‘rsatiladi. Naqqoshlik san'ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir–biridan farqini ko‘rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmoskop, kinoproektor va diaproektor, magnitofon, telvizor, kompyuter, audio, video, proektor va boshqalar kiradi. Naqqoshlik xonasida bu vositalarning bo‘lishi maqsadga muvofikdir.

Texnik vositalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish talabalarda san'atga katta qiziqish uyg‘otadi. Ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma'lum qiyinchiliklarni bartaraf etishda, o‘z navbatida mashg‘ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko‘rsatmalilik yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar kinofilmlar

fikrlash, narsa va xodisalarni bir biriga taqqoslash, ular o‘rtasidagi umumiylit yoki tafovutni aniqlash, o‘tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Naqsh chizish uchun yaxshi sifatli rasm daftari, albom va butun oq «vatman», o‘rtacha yumshoqlikdagi oddiy qora qalam, yumshoq oq yoki qora o‘chirgich, uchburchakli yoki to‘g‘ri chizg‘ichlar, sirkul, 1 dan 10 gacha sonli har xil mo‘yqalam (kist) lar, kerakli bo‘yoq turlari: quruq bo‘yoq, mineral bo‘yoq, moy bo‘yoqlar, guash, tempera bo‘yoqlari, bo‘yoq qorish uchun idishchalar yoki bankachalar, aralashtirish uchun tayoqchalar mavjud bo‘lishi lozim.

**Qalam** (arabcha) — o‘rtasiga ingichka, uzun ko‘mir, grafit, qo‘rg‘oshin, quruq bo‘yoqdan qilingan qotishma joylangan cho‘p shaklidagi yozuv asbob. Qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlataladi. O‘rta Osiyoda hattotlar siyoh bilan yoziladigan qamishlardan foydalanganlar. Chex olimi Y.Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog‘och qalamlar ishlash joyi va hususiyatiga qarab grafitli, rangli va boshqalarga bo‘linadi, shuningdek ular joyiga qarab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Grafit qattiq va yumshoqligiga qarab uch turga bo‘linadi. Qattiq qatlamlar T, 2T, 3T, H, 2H, 3H; yumshoq qalamlar M, 2M, 3M, 4M yoki B, 2B, 3B; o‘rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM, HB, F harflari bilan belgilanadi.

Qattiq qalamlar qog‘ozni tilib yuboradi va o‘chirganda iz qoldiradi. Haddan tashqari yumshoq qalam bilan ham naqsh chizish yaramaydi, u bo‘yalib ketadi. Qalamni ishga tayyorlashga alohida axamiyat berish kerak. Qalam uchini chiqarishda yog‘och qismi 15–20 *mm* grafit qismi taxminan 5–6 *mm* ochiladi.

Chiziladigan chiziqlarni barmoqlar to‘sib qolmasligi uchun qalamning ochilgan uchidan sal balandroqdan uch barmoq bilan ushlanadi. Qattiq qisib ushlamaslik kerak, bularning hammasini ustoz ko‘rsatib tushuntiradi. Chizilgan naqshning markazini aniq belgilash va ramkalar hosil qilishda to‘g‘ri va uchburchakli chizgichdan, har xil o‘lchamdagisi aylanalar chizishda va ularni teng bo‘laklarga bo‘lishda tsirkuldan foydalaniladi.

Naqshga buyoq yaxshi mo‘yqalamlar bilan surtiladi. Mo‘yqalamlarning ishga yaroqlisi quyidagicha tanlab olinadi: uni toza suvga solib silkitiladi, agar mo‘yqalamning uchi birikib ingichka holga kelsa, u ishga yaroqli, to‘zib tursa, yaroqsizdir. Mo‘yqalamlar bo‘rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlar yungidan tayyorlanadi. Biz bo‘rsiq yungidan yasalgan 1 dan 10 gacha raqamli mo‘yqalamlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

1. Siyoh mo‘yqalam — 1, 2 va 3 raqamli mo‘yqalamlar bo‘lib, axta yordamida naqsh tushirilgandan so‘ng ularni yurgizib chiqish va gullar tortishda ishlatiladi. 4 va 5 raqamli mo‘yqalamlar esa band va marg‘ulalarni ranglashda qo‘llaniladi.

2. Obi mo‘yqalam — 6 va 7 raqamli mo‘yqalamlar bo‘lib, ular barg, gul va kichik yuzlarni ranglash hamda naqsh kompozitsiyalarini chekkalarini (ramkalarni) yurgizib chikish uchun ishlatiladi.

3. Mola mo‘yqalamlari — 8, 9 va 10 raqamli mo‘yqalamlar bo‘lib, katta barg, band, gullar va naqshlar tagiga (katta zamin, kichik zaminga) rang berish uchun foydlaniladi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo‘yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo‘yoq, guash, akvarel, emulsiya, bo‘yoq, mineral bo‘yoq, moybo‘yoq, tempera bo‘yoqlari. Naqqoshlik mashg‘ulotlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan bo‘yoq guashdir.

Guash kichik idishchalarda yoki alohida bankalarda bo‘lib, u suvda yaxshi eriydi. Guashning yana bir qulayligi shundaki, u bilan turli rangdagi qog‘ozlar va yog‘ochlarni ham bo‘yash, bir rangni ikkinchi rang bilan aralashtirib, uchinchi bir rang hosil qilish mumkin.

Xoka tayyorlash: yupqa mato yoki ikki qavat dokaga maydalangan pista ko‘mir kukuni, sinka, bo‘r yoki belil poroshogi solinadi va xaltacha holida tugiladi. Shy tariqa xoka tayyor bo‘ladi.

Axta tayyorlash: yupqa xitoy qog‘ozi (kalka) naqshlanadigan buyum yuzasiga qo‘yilib, o‘lchab olinadi va shu yuzaga mos axta tayyorlanadi. Naqshning yarim yoki chorak qismi qog‘ozga yumshoq qora qalam bilan chiziladi. Naqsh simmetrik o‘qlari bo‘yicha ikki, to‘rt va undan ortiq bo‘laklarga buklanadi. Naqshni yumshoq yostiqcha

ustiga qo‘yib, nusxa ustini igna bilan teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa aniq va ravshan ko‘rinishi uchun teshikchalar oralig‘i naqsh nusxasining yirik yoki maydaligiga qarab belgilanadi. Nusxa qanchalik mayda bo‘lsa, teshikchalar oralig‘i shunchalik yaqin bo‘lishi kerak. Shundan so‘ng qog‘oz yoyib yuborilganda butun naqsh (axta), ya’ni nusxa hosil bo‘ladi. Tayyorlangan axtalardan bir necha marotaba foydalaniladi, shuning uchun ular ehtiyyotlab saqlanadi<sup>9</sup>.

Axta yog‘och yuzasiga yoyilib, ustidan xoka urib chiqiladi yoki bosib yurgiziladi. Yuzaga tushirilgan iz o‘chib ketmasligi uchun naqsh yo‘llari ustidan kichik raqamli mo‘yqalam, qora yoki biror to‘q rangdagi qalam bilan siyohqalam qilib chiqiladi. Chizilgan va naqshlangan yuzaning eng chetidan qora bo‘yoq bilan 3–5 mm yo‘g‘onlikda obi tortiladi.

Yog‘och yuzasiga tushirilgan naqshlarning izlari bo‘yaladi va buyoqlar o‘chib va surkalib ketmasligi uchun ustidan 2 yoki 3 marta laklab chiqiladi. Laklarning rangi toza va tiniq bo‘lishi kerak. Laklangan buyumlar 18–22 gradusli, changsiz va quruq joyda saqlanadi.

**Tayanch tusunchalar:** asbob–uskuna, kompyuter, audio, video, proektor, albom, mineral bo‘yoq, moy bo‘yoqlar, guash, tempera bo‘yoqlari, ko‘mir, grafit, qo‘rg‘oshin, axta, kompozitsiya, zamin, guash, akvarel, emulsiya, mineral bo‘yoq, jilvir qog‘oz, bo‘r, pista ko‘mir, sinka, doka, xitoy qog‘ozi, kalka, nina, alif, yelim, shpaklevka, gruntovka xoka.

### MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ishga yaroqli mo‘yqalamlar qanday tanlab olinadi?
2. Ishga yaroqli mo‘yqalamlarni qanday aniqlash mumkin?
3. Naqqoshlikda ishlataladigan bo‘yoq turlarini bilasizmi?
4. Xoka nima va u qanday tayyorlanadi?
5. Axta nima va u qanday tayyorlanadi?
6. Xoka va axtadan nimada foydalaniladi?

---

<sup>9</sup>Холматов Б.К. Наққошлиқ. –Т.: Иқтисод–Молия, 2007.



1. Mo‘yqalam turlarini o‘rganish.
2. Mo‘yqalamlarni ishchi holatga tayyorlashni o‘rganish.
3. Naqqoshlikda ishlataladigan bo‘yoq turlarini o‘rganish.
4. Xoka va uni tayyorlashni o‘rganish.
5. Axta va uni tayyorlashni o‘rganish.

## I.2–§. BADIY NAQQOSHLIKNING O‘ZIGA XOSLIGI VA ESTETIK MOHIYATI

### I.2.1.–§. Naqsh va uning turlari

Orta Osiyo san'ati qadimdan mashhurdir. Naqqosh ustanning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog‘oz betini to‘ldirish yoki bo‘yash, o‘yma yuzini o‘yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiylik qonun–qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai–nazardan olib qaraganda o‘ymakor ustanning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas’uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo‘lsa, u holda xoh bo‘yashda bo‘lsin, xoh o‘yishda bo‘lsin yoki pardoz berishda bo‘lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko‘ngildagidek go‘zal va jozibador chiqmaydi.

O‘tmishda ota–bobolarimiz qurban muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar har bir tomoshabinni hayratga solib kelmoqda. Xattoki chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilar ham mamlakatimizdagi qadimiy yodgorliklarni, badiy did bilan ishlangan naqshlarini ko‘rib lol qolmoqdalar. Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi, YuNESKO muhofasidagi Ismoil Somoniylari maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shohi–Zinda maqbarasi, Go‘ri Amir maqbarasi, Ulug‘bek, Sher dor, Tillakori madrasalari va boshqalar Sharqning nodir go‘zalligi, soddaligi hamda naqsh motivlarining ulug‘vorligi bilan kishilarni sehrlab kelmoqda.

Yuzlab, minglab xalq me'morlarining qovargan qo'llari bilan yaratilgan yodgorliklardagi jonli naqshlar xuddi tabiatning go'zallik olamini kuylayotganday tuyuladi va kishilar ruhiyatiga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Chunonchi, Samarqanddagi asrlar davomida musulmon sharqida dong taratgan oliy bilim maskani Ulug'bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta'lim–tarbiya maqsadida ko'zlab bunyod qilganligini naqqoshlar bezagi orqali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlardan ko'p burchakli va ko'p qirrali yulduzlardan tashkil topgan naqshlar xuddi koinotdagi charaqlab turgan yulduzlarni tarannum aylagandek asrlar osha hikoya qilib turganday tuyuladi. Ana shu bir birini kesib o'tgan behisob chiziqlar, har xil burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlarni girih deb yuritiladi. Xo'sh, girih nima o'zi? U qanday ma'noni anglatadi?

**Girih** — forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, handasiy naqshlar turiga kiruvchi murakkab naqsh demakdir. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo'ladi. Har bir taqsim o'z tuzilishiga ega. Girih O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh bo'lib, XII–XVI–asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan. Dunyoda girihni eng ko'p tarqalgan joyi O'rta Osiyodir. O'rta Osiyoda girihlarning juda ko'p turi mavjud. Bu girichlarni arxitektura minoralaridan tortib kitob varag'igacha bezatilganining guvohi bo'lamiz. Albatta biz tarixga nazar tashlar ekanmiz o'sha zamon uchun girihni chizmachilik asboblari, matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiyot edi. Bu girihni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bo'lganlar.

Arxitektura yodgorliklaridagi geometrik naqshlar shunday aniqlikda ishlanganki, kishini lol qoldiradi. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko'p izlanishlar qildilar. Lekin bu jumboqlardan to'la ma'lumotlar ololmadilar. Chunki o'sha vaqtdagi ustalar bu geometrik naqshni qurishni sir deb bilib qog'ozda yoki tushuntirib qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan–bolaga o'tib unutib yuborilgan. Ana shu sabablarga ko'ra hozirgi zamonamizda ham ko'pgina ustalarimiz girihni yechimini topishga qiynaladilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940—998) o‘zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bularda girihi ba’zi oson yo‘llarini tushuntirib o‘tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to‘g‘risida yozilgan. Bu kitob hozir Parijdagi muzeylardan birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy o‘zining asarlarida girihi tayyorlash usullarini ko‘rsatib o‘tsada, bizga girihi yechimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilmagan<sup>10</sup>.

U o‘zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo‘lishning eng sodda va oson yo‘llarini keltiradiki, bu o‘sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma’lum. XVII—asrga kelib, girihi san'ati juda kam ishlatiladigan bo‘ldi. Girihi chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girihi chizish murakkab bo‘lgani uchun hamma ustalar chiza olmaganlar. O‘sha davrlarda girihi naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo‘lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo‘lgan. U yangi girihi osonlik bilan chiza olgan hamda o‘z o‘rnida ustalik bilan qo‘llay olgan. U o‘z davrida girihi piri hisoblangan, uni girihikor usta deb hisoblaganlar. Shuning uchun girihi chiza olmagan ustalarni yetuk usta deyilmagan.

Bunday olimlardan 3.Bositxonovni keltirishimiz mumkin. 3.Bositxonov 300 ga yaqin ishlagan yangi girihi naqshlari bilan mamlakatimizda mushhurdir. Hozirda har bir binoni bezashda geometrik naqshlar qo‘llab kelmoqdalar. Girihi naqshining o‘z qonun-qoidalari bor. Shuning uchun ham biz ularga girihi naqsh yasash geometriyasini qonun-qoidalari chuqur o‘rgatmog‘imiz lozim.

**Gulli girihi** — o‘simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga geometrik va o‘simliksimon naqshlar kiradi.

---

<sup>10</sup>Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т.: Мехнат, 1991.

**Ramziy naqshlar** esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g‘uncha, kabutar, tovos va boshqalarning tuzilishini, o‘sish qonun-qoidalari, ko‘rinishini sinchiklab o‘rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash



**19–rasm. Turunj naqsh namunasi.**

uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Chunonchi, usta gulni stillashtirib olishda uning go‘zalligini qaysi holatdagi (ustidan, yonidan yoki tagidan) ko‘rinishini tasvirlashni izlab topadi.

**Madoxil** — (arabcha — ostona, kirish, eshik) chapurost takrorlanuvchi islimi naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya’ni manbai, ildizi, asosi yoki o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Madoxili ko‘rinishi jihatidan xilma xil bo‘lib, g‘uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o‘ziga xos nom qo‘yganlar. Masalan: madoxili lola — g‘uncha, lola shakliga yaqin qilib ishlangan madoxili naqsh turi; qo‘sish madoxili — lola, g‘uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqoriga, biri pastga qaratib chiqilgan

nusxasi; madoxili islumi — naqshning taqsimini, asosini madoxili shakli egallovchi islumi naqsh turi. Madoxili naqshlari arxitekturada, yog'och, ganch, tosh, mis o'ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado'zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari borgan sari ko'payib bormoqda va zamonaviy binolarning uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda keng qo'llanilyapti.

**Turunj** — arabcha «limon» degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalon, naqshlarda kompozitsianing markaziga chiziladigan naqsh turi. O'rta Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko'rinishi, limon shaklida bo'lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doira, 5–10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 ga bo'linadi.

Naqqoshlar ko'pincha to'rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab o'rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog'ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo'lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib so'ngra qog'oz yoyilsa qolgan bo'laklariga ham nusxaning takrori hosil bo'ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

**Anorgul** — naqqoshchilikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlatiladigan o'simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo'lib, ko'pincha Farg'ona naqshlarida ayniqsa ko'p uchraydi. Bu naqsh turi hayotdagi to'qchilik va to'kin-sochinlik, serfarzanblilik ramzi sifatida ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil, ya'ni naturalistik, bunda tabiatda qanday bo'lsa shunday tasvirlaydilar, gohida stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko'pincha ichki qismini ham ko'rsatib tasvirlaydilar.

O'simliksimon naqshlari esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

**Islimiy** — o'simliksimon naqshi amaliy san'atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan. Islimiy klassik naqsh turi bo'lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo'ladigan naqsh.



### **20–rasm. Islimiy naqsh namunasi.**

Islimiyning turlari juda ko'p, usta kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to'ldirilgan bo'lsa, shu shaklning nomini qo'shib aytildi. Chunonchi, islumi mehrob, islumi bodom, islumi bulbul va boshqalar.

O'rta Osiyo, Hindiston, Yaqin Sharq, Afg'oniston, Eron ustalari islimiyl uslubda buyumlarni badiiy bezashda ajoyib yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Bu uslubda Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon shaharlarida ustalar qadimdan hozirgacha ishlab kelyaptilar.

Demak, naqsh chizishni o'rganishdan oldin elementlarni chizishni, qanday nomlanishini va qaerlarda ishlatilishini bilish muhim ahamiyatga ega. Barg, gul, novda, marg'ula, bofta, shukufta (shkuft), tanob, bog'lam va sirtmoq kabi naqsh elementlari mavjud bo'lib, ular tuzilishi, xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqib nomlanadi.

**Tayanch tusunchalar:** kompozitsiya, pardoz, yodgorlik, me'mor, girih, arxitektura, geometrik, kvadrat, gul, barg, novda, g'uncha, madoxil, rax, oval, romb, ellips, turunj, o'simliksimon, mehrob, novda, marg'ula, bofta, shukufta, tanob, bog'lam, sirtmoq, handasiy.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**


1. Qanday naqsh turlari bor va ular qaysilar?
2. Qanday naqsh turiga gulli girih naqshi deyiladi?
3. «Amaliy san'atning deyarli barcha turlarida juda keng tarqalgan o'simliksimon naqshi» ta'rifi qaysi naqsh turiga nisbatan berilgan?
4. Arabcha «limon» degan ma'noni bildiruvchi naqsh turi qaysi?



1. Forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatib, handasiy naqshlar turiga kiruvchi murakkab naqsh turi — girih naqshini o'rganish.
2. Naqqoshlikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlataladigan o'simliksimon naqsh — anorgul naqshini o'rganish.
3. Kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topgan — ramziy naqshlarini o'rganish.
4. Arabcha — ostona, kirish, eshik ma'nolarini anglatib, chapurost takrorlanuvchi islimi naqsh turi bo'lib, kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya'ni manbai, ildizi, asosi yoki o'zagi hisoblanuvchi — madoxil naqshlarini o'rganish.

### I.2.2.—§. Oddiy naqsh elementlarini chizish

Amaliy san'atga ihlos qo'ygan va uni o'rganmoqchi bo'lgan har qanday kishi amaliy san'at turlari — ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqalarni o'rganish uchun naqsh elementlarini chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishslashning alifbosi hisoblanadi.



**21–rasm. Barg naqsh elementlari.**


Bu mashg'ulotda biz naqsh elementlari barg, gul, marg'ula va tanob, shkift, bog'lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni o'rganamiz<sup>11</sup>.

**Barg** — o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargini stillashtirib olingan tasviri (20–rasm). Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi elementdir. Ular tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg, sadbarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor: chunonchi, shobarg (shahona barg) eng katta barg, qo'sh barg, ko'p barg, chor barg (to'rtta barg), hurmo bargi, tol bargi,

<sup>11</sup>Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T.: Cho'lpox, 1999.

anor bargi, qashqarcha barg, madoxil barg, qo'shbodom barg, qalampir barg, nok bargi, sambit barg, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari bor.

**G'uncha** — tabiatdagi nabotot olamining hali ochilib ulgurmagan gullarini naqqosh tomonidan stillashtirib olingan tasviri bo'lib, naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi elementlar sirasiga kiradi.




**22–rasm. Gul naqsh elementlari.**

Demak, gulkosa va gultoj barglari quyosh nuriga to'yinib, gul bo'lib ochilmasdan avvalgi holati g'uncha deyiladi. Bir o'ramli gullarning gul barglari yashil rangda bo'lsa, bunday gullar gulkosasimon deyiladi. Bunday gullarga lavlagi, otquloq, izen va boshqalar misol bo'la oladi.

**Band** — o'simliksimon naqsh elementlaridan biri bo'lib, o'simliklar morfologiyasida bargli, kurtakli poya novda, ya'ni naqqosh ustalar tili bilan aytganda esa band deyiladi. Novda asosan kurtakning rivojlanishidan hosil bo'ladi. Novdaning uchidagi doimiy kurtak uning yuqoriga qarab o'sishiga xizmat qiladi. Uchki kurtakning ostida, barg qo'ltig'ida ham kurtaklar joylashgan bo'lib, ular yon

kurtaklar deb ataladi. Yon kurtaklar novdada ketma–ket va qarama–qarshi joylashadi. Novdadagi yon kurtaklar ikki xil bo‘lib, ularning biri yon novda, ikkinchisi esa gul va barg hosil qiluvchi novda deyiladi.

Band gullarning novdasi hisoblanadi. Band amaliy san'atda tabiatdagi daraxt yoki o‘simliklarning novdasini stillashtirib olingan tasviridir. Har bir naqsh elementi




**23–rasm. Bargli gul naqsh elementlari.**

singari bandning ham kompozitsiyada qo‘llanishining o‘ziga xos qoidalari bor. Masalan, bandning aniq bir o‘lchamda bo‘lishi, kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanishi, u naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidan o‘tishi va hokazo. Turli naqqoshlar kompozitsiyada banddan o‘ziga xos metodda foydalanadilar, shuning uchun ham naqshlar bir biridan farq qiladi. Chunonchi, Xorazm naqshida bandlar kam kurtak va barglar deyarli bo‘lmaydi. Novdalarning o‘zi prujina singari bir biriga to‘qilib ketadi. Bundan tashqari novda shoxlash paytida Buxoro, Toshkent va Samarqand nusxalaridan ko‘pincha shukuft bilan shoxlari bir biriga mustahkamlashsa, xorazmliklarda shukuft ajratilmay o‘rniga novdacha qo‘silib ketadi.

**Gul** — tabiatdagi gullarni naqqoshlar tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Gul naqsh kompozitsiyada to‘ldiruvchi va husn beruvchi element bo‘lib hisoblanadi (21–rasm). Gullarning har xil turlari bo‘lib, ular o‘ziga xos nomlanadi. Chunonchi uch va besh yaproqli oygul, bargli oygul, lola gul, paxta gul, no‘xat gul, chinni gul, savsar gul, atirgul, gulafshon, gultojixo‘roz va boshqalar. Gullar tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkabga bo‘linadi. Murakkab gullarga pista gul; ko‘p bargli gul va boshqalar, oddiy gullarga esa oygul, lola gul, paxta gul, no‘xat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishga ega bo‘lganligi uchun ularni o‘ziga xos nomlari bor.

**Shukufta** — o‘simpliksimon naqsh elementi bo‘lib novdalar bir birini bog‘lash va yuzalarni to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Shukufta tuzilishi jihatidan turlichay bo‘ladi: bir yerda kichik sodda bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda anchagini takomillashgan, uchinchi o‘rinda ikki tomondan kelayotgan shukufta qo‘silib madohil yoki shunga o‘xshash shaklini hosil qiladi.



**24–rasm. Yakka bandli shukufta va bofta naqsh elementlari.**

**Bog‘lam va sirtmoqlar** — o‘simpliksimon naqsh elementlari bo‘lib, bandi rumiy boftaning oddiy turi hisoblanadi. Ikki tanobni uchinchi sirtmoqsimon egib o‘ziga bog‘lashni sirtmoq deyiladi. Sirtmoqlar bir biri bilan chalkashib o‘tadi, umumiy ko‘rinishi xuddi sakkiz raqamni eslatadi.

**Bofta** — tanob aylanib o‘tib hosil qilgan shakl. Islimiyl naqsh elementi. Boftalar to‘g‘ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo‘ladi.

**Marg‘ula** — qo‘sish chiziqli gajak, o‘simpliksimon naqsh elementi. U misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik va boshqalarda ishlataladi. Agar bir novdani uchida ikki marg‘ula hosil bo‘lgan bo‘lsa, uni qo‘sish marg‘ula deb yuritiladi.

Agar novda bilan marg‘ula tasvirlangan bo‘lsa marg‘ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg‘ula to‘ldiruvchi element hisoblanadi.

**Tanob va novdalar** — (tanob) arabcha chilvir, arqon degan ma’noni beradi.

Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshga shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi. O‘rta Osiyo naqshlarida bir xil yo‘g‘onlikdagi chiziq bo‘lib, ustalarimiz tabiat manzarasida uchraydigan anhorning shartli tasviri deb olganlar. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi, so‘ngra novdalarni yo‘nalishiga moslab gullar joylashtirib chiqadi.

Ustalar naqsh kompozitsiya chizishda tanobni birinchi rejaga qo‘yadilar. Tanob ustidan hech qachon, gul, novda yoki barg bosib o‘tmaydi. Bundan tashqari tanob tag ranglarni bir biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma xil bo‘lib, bir kompozitsiyada tanob boshlanganicha uzluksiz davom etadi, ba’zi nusxalarda tanob ikki nuqtadan boshlanib bir biriga qarab yo‘nalib, bir biriga chirmashib tugallanadi, yana boshqa nusxalarda tanob bir nuqtadan boshlanib, ikki tomonga yo‘nalib taqim chetiga borib tugallanadi. Tanob egri, to‘g‘ri aralash chiziqlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o‘tuvchi rangli naqshlarda ishlatilsa, unda albatta ikkalasi ikki xil rangga bo‘yaladi, agar bir xil rangda bo‘ysa, unda asosiy shakl o‘zini ko‘rsata olmaydi. Tanoblar bir birini kesib o‘tmay, bir biriga parallel bo‘lsa, bunday nusxani «qo‘sh tanobli islimi» deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo‘lsa, «qo‘sh tanobli namoyon» deb ataladi.

Kompozitsiyada tanob birdan ortiq ham bo‘lishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozitsiya bo‘lsa, biri bosh, ikkinchisi yordamchi tanob deyiladi. Kompozitsiyada tanobning ustidan novda, gul, barg va boshqalarning o‘tishi mumkin emas.

Biz yuqorida aytib o‘tilgan naqsh elementlarining nomini puxta bilib olishimiz kerak. Chunki keyinchalik naqsh tuzishda va unga nom qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘simpliksimon naqsh elementlarini o‘rganish, ma'lum qonun–qidalar asosida mashq qilishdan boshlanadi. Buning uchun katak daftari, lineyka, qora qalamlar, o‘chirgichlar, o‘rtacha yumshoqlikdagi qora qalam, rasm daftari va boshqalar. Dastlab

to‘g‘ri, og‘ma, egri, tik, aylana va yoylarni ko‘z chamasida teng bo‘laklarga bo‘lish bo‘yicha oddiy mashqlar bajariladi. Bu mashqni yaxshilab o‘zlashtirib olganingizdan so‘ng asosiy mashqqa o‘tamiz.

O‘simliksimon naqsh elementlarini guruhlarga bo‘lib chizishni mashq qilamiz. Buning uchun katak daftarda quyidagi tartibda qora qalamda elementlarni qaerdan boshlab, qaerda tugatishni qunt bilan o‘rganib olamiz, katak daftarda lineyka yordamida qalamni yengil yurgizib sxematik kataklar chizib, shu kataklarga naqsh elemvntlarini chizishni mashq qilamiz. Har bir betga bitta naqsh elementini qayta qayta chizish mashq qilinadi. Bunda qalamni qattiq bosmasdan bir xil yo‘g‘onlikda chizib simmetriya va assimetriyaga katta e’tibor berish kerak. Elementlarni ravon, to‘g‘ri, ingichka va toza chizish muhim ahamiyatga ega.

Chizishdan avval katak daftarlarni chizg‘ich va qora qalam yordamida qalamni yengil yurgizgan holda sxematik kataklar chizib, shu kataklar ichiga naqsh elementlarini chizishdan boshlaymiz. Daftarning har bir betiga bitta naqsh elementini qayta–qayta chizib mashq qilinadi. Chizish davomida, simmetriya va asimetriya qonun–qoidalariga e’tibor qaratish lozim.

Naqsh elementlarini chizish uchun oddiy qora qalam, ya’ni yumshoq B, 2B, 3B yoki M, 2M, 3M, 4M; shuningdek o‘rtacha yumshoqlikdagi TM, HB, va F harflari bilan belgilangan qalamlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Naqsh elementlarini chizishni mashq qilishda qalamning sifatlisidan foydalanishga harakat qilish, qalamning sifatli yoki sifatsizini ajrata bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, amaliy san’atning qaysi tur va janrlari bilan shug‘ullanmasin naqqosh uchun qanchalik mo‘yqalam, yog‘och va ganch o‘ymakor ustalari uchun esa o‘yuvchi va yo‘nuvchi iskanalar qanchalik muhim bo‘lsa oddiy qora qalam ham shunchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Chunki, amaliy san’at ustasi naqsh kompozitsiyasini yaratishda qalam asosiy ish qurliga aylanadi. Naqqosh har bir chiziq tortganida, chizayotgan chizig‘i sifatli, ravon va tiniq chiqsa usta shunchalik zavqlanadi, ruhi tetiklashadi. O‘zi amalga oshirayotgan ishdan ko‘ngli to‘lib, ilhomlanadi, yangidan–yangi naqsh elementlarini, kompozitsiyalarini yaratadi,

kashf etadi. Oddiy qora qalamlar naqqoshning asosiy ish quollaridan biri ekan, xo'sh qalamlarning sifatli yoki sifatsiz ekanini qayerdan ajratib olish mumkin?



**25–rasm. Husn beruvchi naqsh elementlari.**

Ma'lumki, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda turli tuman o'quv quollarini, shu jumladan oddiy qalamlarning

ko‘plab markalarini savdo do‘konlarida, rastalarida uchratishimiz mumkin. Qalamni sotib olishdan avval uning markasiga e’tibor berish zarur. Rossiya (Томск) ning «КОНСТРУКТОР», Germanianig «GLOBE NO. 555 222», Chexiyaning «HARDTMUTH «КОНСТРУКТОР» 1500» hamda «POLF» va boshqa markali ko‘plab qalam turlarini uchratishimiz mumkin.

Agarda markasiga qarab sifatli qalamni ajratib olish imkoni yo‘q bo‘lsa, oddiy toza oq qog‘ozni teks stol ustiga qo‘yib qalamni bir xil kuchlanishda ohista yurgizib ko‘riladi. Qalam qoldirgan chiziq atrofida xira iz qoldirsa yoki qalam grafiti to‘kilib qolsa u sifatsiz qalam hisoblanadi. Bordi–yu siz tortgan chizig‘ingiz bir xil yo‘g‘onlikda, chiziq atrofida hech qanday iz qoldirmasa yoki qalam grafiti to‘kilib qolmasa u sifatli qalam hisoblanadi.

Naqsh kompozitsiyasining sifatli, chiroyli va jozibador chiqishi uchun qalam bilan bir qatorda o‘chirg‘ich va chizg‘ichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qalamda chizilgan chiziqlarni o‘chirish uchun yumshoq oq o‘chirg‘ichdan foydalanish qulay. Chunki, qalam izlari mayin va yumshoq oq o‘chirg‘ichlarda o‘chirilgandan so‘ng qog‘ozda dog‘ qoldirmaydi. Tarkibiga qum qo‘shilgan ko‘k dag‘al o‘chirg‘ichdan foydalanish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Dag‘al o‘chirg‘ichda o‘chirilganda qog‘oz sathida dog‘ qoldirish bilan birga uning sifatini buzadi, qayta chizish jarayonida ish sifatiga putur yetadi.

Chizg‘ichlardan foydalanishda esa albatta yog‘och chizg‘ichlarni ishlatish zarur. Chunki, yog‘och chizg‘ichlar qog‘oz sathida surilganda yog‘ni, namlikni o‘ziga singdirib oladi va bir teksda ishning sifatli chiqishini ta’minlaydi. Metall, shisha, plastmassa va boshqa shu kabi materiallardan yasalgan chizg‘ichlar qog‘oz sathiga ishqalanishi natijasida qiziydi va tarkibidan yog‘ va namlik chiqarib qog‘ozga surkalaydi, har xil dog‘lar hosil qiladi. Oqibatda naqsh kompozitsiyasining sifati buziladi, kishi ruhiyatiga ta’sir etib, bajarayotgan ishidan ko‘ngli qoladi, mehnati samarasiz bo‘ladi.

**Tayanch tusunchalar:** shobarg, qo‘shbodom, nabotot, gulkosa, gultoj, tanob, marka, grafit.

## **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Qanday naqsh elementlari bor va ular qaysilar?
2. Qanday naqsh elementlariga husn beruvchi naqsh elementlari deyiladi?
3. Naqsh elementlarini chizishda qanday qalamlardan foydalangan ma'qul?



*Mustaqil ta'sim*

1. Naqsh elementlari va uning turlarini o'rghanish.
2. Naqsh elementlari va ularni chizishni o'rghanish.
3. Naqsh elementlarini o'ziga xosligini, turlarini va vazifalarini o'rghanish.

### **I.2.3.—§. Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizish**

Boshlang'ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari xosil bo'lganidan so'ng mustaqil topshiriq sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos o'lchamlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib, bo'lajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini «hayolan» tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan qachonlardir o'zlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlar, ish tajribalari, fikr yuritishlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, shuningdek, xotiralari zahirasida qanchalik ko'p naqsh elementlari mavjud bo'lsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi.

Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bo'laklar asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko'chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha yengillashtirib kelmokda. Shu ko'rsatmalarga muvofiq shakl yasovchi reja-qolip 4\1 nisbatda chizib olinadi.

Ramka chiziqlari yakka, qo'sh va bir necha qo'shimcha chiziqlardan iborat bo'lishi mumkin. Patnis ko'rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi bosqich yakka yoki qo'sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo'lishi ham mumkin. Mashqlar davomida

chiziqlar harakatining ravonligiga shakl chiziqlarining qiyshiq yoki siniq holatda chizilib qolmasligiga e'tibor qaratiladi. Yakka band yo'lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan bog'lanadi. Endi yuza bo'shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga bog'lagan holda joylashtirish rejallashtiriladi. Novda shakllar bo'yicha xarakatlantirilib chizib boriladi.


Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy bog'lanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ular natijasida kompozitsiya mazmuni tugal yechimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis ko'rinishidagi naqshlar turiga xos bo'lganligi sababli «Patnis islumi» deb ataladi.

Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi va yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

Naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalilaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (sirkul) va boshqa bir qator asboblar kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tuzilsa buyum yanada ko'r kamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadaligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach xitoy qog'oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.


Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga



**26-rasm. 1-gul. «Bodom guli» naqsh namunasini chizish bosqichi.**


olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

O'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va vogelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir.




**27–rasm. 2–gul. «Yak raftor» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

Masalan, majnuntol misolida ko‘radigan bo‘lsak, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o‘sayotgandek tuyulsa-da, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bo‘lib, bir tomonlama yo‘nalishiga qarab o‘sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o‘z aksini topgan.




**28-rasm. 3-gul. «Bargli raftor» naqsh namunasini chizish bosqichi.**



**29-rasm. 4-gul. «Bargli islimli» naqsh namunasini chizish bosqichi.**


Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish

tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda o‘ymakor ustanning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas’uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir.




**30-rasm. 5-gul. «Aylana shukuftali islimiyy» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda xoh o'yishda bo'lsin yoki pardoz berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.




**31–rasm. 6–gul. «Mehrob islimi» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsa-da, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozitsiyasi tuzishda qo'yilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi. Mohiyatan olib qaraganimizda kompozitsiya nima o'zi?




**32–rasm. 7–gul. «Islimi bafta» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

**KOMPOZITSIYA** — ruscha—lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, adabiy asar yoki san'at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o‘zaro munosabati hamda tarkibiy qismlari ma’no jihatidan o‘zaro bog‘lanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy san'at asari tushuniladi.




**33-rasm. 8-gul. «Qo’sh mehrobli islimi» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiylici, chiroyliligi va pardozlarning bir–biriga uyg‘unligi kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi.



**34–rasm. 9–gul. «Patnisgul islimi» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

Oddiy naqsh namunalarini o'rganishda, o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan naqsh elementlarini yoddan chizish, stilizatsiya orqali yangi naqsh elementlarini hosil qilib ular ishtirokida kompozitsiyalar tuzish maqsadga muvofiqdir.



**35-rasm. 10-gul. «Islimi shkufta» naqsh namunasini chizish bosqichi.**

«Har bir insonning o‘z ismi bo‘lganidek, har bir naqshning o‘ziga xos nomlari bo‘ladi. Naqshning nomlanishi uning xarakterli o‘rni bilan belgilanadi.

Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o‘ziga xos nomlari va ma'nosi bo‘ladi.

Har qanday naqsh oddiy elementlarning ma'lum g‘oya, xarakter va vazifasiga muvofiq joylashtirilishi, o‘zaro uyqunligi va muttanosibligi bilan hosil bo‘ladi. Bu qisqacha kompozitsiya (mujassamot) deyiladi»<sup>12</sup>.

Shuningdek naqsh chizishni barcha qonuniyatlarini yaxshi o‘zlashtirib borishda, mavjud yo‘l ichidagi o‘nta oddiy naqsh namunasini aslidek yoddan chizib o‘rganish kerak bo‘ladi.

Oddiydan murakkablashib boruvchi o‘nta yo‘l ichidagi naqsh namunalarini taniqli naqqosh ustozlarimiz tomonidan tuzilib, nomlangan deyishadi. Ustozlarimizning takidlashlaricha 1934 yili Toshkentda ochilgan Badiiy o‘quv ishlab chiqarish kombinatining naqqoshlik bo‘limi o‘qituvchisi usta Olimjon Qosimjonov va bir–oz keyinroq, Jalil Xakimovlar, boshlanqich dars mashg‘ulotlarni to‘rtta naqsh namunasi yordamida o‘rgatar ekanlar.

Ayrim taxminlarga ko‘ra bu naqsh namunalarini yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning o‘zları yaratganlar. Keyinchalik usta Jalil Xakimovning, birinchi shogirdlaridan bo‘lmish moqir pedagog naqqosh usta Mahmud To‘raev oddiy naqsh namunalarining yana qo‘sishimcha oltita nusxasini yaratib, nomlaganlar.

Mavjud o‘nta oddiy naqsh namunalarini boshqa o‘ymakor ustalar, yoqoch va ganch o‘ymakorliklariga oid, o‘yish jarayonlariga mos ravishda, qo‘sbandli naqsh holatlarida chizganlar. Oddiy naqsh namunalarining nomlanishi va chizilishi tartibi quyidagicha:

- 1—gul — «Bodom guli»;
- 2—gul — «Yak raftor»;
- 3—gul — «Bargli raftor»;
- 4—gul — «Bargli islimli»;

---

<sup>12</sup>Bulatov S.S. Ganchkorlik (5 sinflar uchun qo‘llanma). –T.: O‘qituvchi, 1997.

5—gul — «Aylana shukuftali islimiyy»;

6—gul — «Mehrob islimi»;

7—gul — «Islimi bafta»;

8—gul — «Qo‘sh mehrobli islimi»;

9—gul — «Patnisgul islimi»;

10—gul — «Islimi shkufta».

Biz dastlab oddiy naqsh namunalarini katak daftariga bosqichma–bosqich chizishni mashq qilishimiz kerak. Ma'lum tajribaga ega bo‘lganimizdan so‘ng, mazkur naqshlarni rasm daftariga ikki nusxada qalamda va bo‘yash uchun alohida tarzda chizamiz.

Oddiy va boshqa naqshlarning mukammal tuzilishi jihatlariga nazar tashlasak, ulardagi shakl yasovchi asosiy yo‘l harakatlarini yoki to‘ldiruvchi gul, novda elementlarining har qaysisi o‘z holicha kompozitsion yechimlardan iborat ekanligini kuzatishimiz mumkin. Misol, «Qo‘sh mehrobli islimi» naqshida mehrob shaklimiz yakka bandli shakl yasovchi vazifasini o‘taydi va gul novda, kurtak elementlari esa naqshning zaminini to‘ldirib turadi. Mehrob shakli o‘z holicha novda gul bog‘lanishlari bilan alohida naqsh tasvirlarini anglatishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilgan o‘nta yo‘l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda chizishni mashq qilib ko‘ramiz. Bu mashqlarni bajarish uchun katak daftar yoki rasm daftari, qora qalam, chizg‘ich va o‘chirg‘ch kerak bo‘ladi. Naqsh o‘lchamlariga ahamiyat bergen holda qalamni yengil, bosmasdan chizish kerak.

1—gul. «Bodom guli» ni qalamda katak daftarda quyidagi bosqichda chizamiz. Chizishda ritm va simmetriyaga rioya qiling.

1–bosqich. Ikki parallel chiziq chizilib, ularning oralig‘i teng bo‘laklarga bo‘linadi. Katak — kvadratlarga diogonal o‘tkaziladi. Bularning hammasi ingichka yordamchi chiziqlar asosida bajariladi.

2–bosqich. Ikki kvadrat oralig‘iga yarim aylana chizib chiqiladi.

3–bosqich. Yarim aylana shakllari pastki tomonlarga ham ishkom ko‘rinishida chiziladi.

4–bosqich. Ikkala bargning pastki va ustki tomonlaridan kurtaklar chiziladi. Qolgan 9 ta naqsh gullarini shu kabi bosqichlar asosida chizib chiqiladi. Naqshlarni bir necha marotaba takroran nafis va ravon chizib o‘rganiladi<sup>13</sup>.

**Tayanch tusunchalar:** diqqat, shakl, sirt, nisbat, yakka band, qo‘sh band, yaxlit, reyshina, transportir, reysfeder, pargor, ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, dinamik, stilizatsiya, mujassamot, raftor, yak raftor, qo‘sh raftor, patnisgul, qo‘sh mehrob, kurtak, komponent.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalarini tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
2. Kompozitsiya tuzishda qanday komponentlarga amal qilish lozim?
3. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalari nechta va ular qanday nomlanadi?
4. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalarini chizish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
5. O‘nta yo‘l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda chizishni mashq qilishda nimalar zarur va chizish qanday amalga oshiriladi?



*Mustaqil ta'lim*

1. Naqqoshlik san'atiga oid naqsh kompozitsiyalari tuzish.
2. Naqqoshlik san'atiga oid oddiy naqsh namunalarini chizishni mashq qilishni chizishni mashq qilish.
3. O‘nta yo‘l ichdagi oddiy naqsh namunalarini qalamda katak daftarga yoki rasm daftariga chizishni mashq qilish.

---

<sup>13</sup>Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т.: Мехнат, 1991.

## **I.2.4.–§. Naqqoshlik san'atiga xos yo'l ichidagi 10 ta naqsh kompozitsiyasini bo'yash va pardozlash**

Naqsh rang bilan jozibalidir. Naqsh elementlarining ko'zga yaqqol tashlanishi, naqsh va zamin yuzalarining hamohangligi va o'ziga xos ramziylikni kashf etuvchi xususiyatlarini, albatta rang tuslarisiz tasavvur etish qiyin.

Naqshda rang uyg'unligiga erishish katta san'atdir. Rang uyg'unligi deb ma'lum bir yuzadagi turli ranglarning qaysi tomonlari bilandir o'zaro mos kelishiga aytiladi. Rang uyg'unligini ko'ra bilish va yarata olish uchun qaysi rangni qanday rang bilan aralashtirish mumkin, uni qaysinisi bilan aralashtirib bo'lmasligini, qaysi ranglar yonma-yon kelsa, rang uyg'unligi paydo bo'lishini bilish kerak. Ranglar uyg'unligi to'g'ri topilsa, mavjud barcha ranglarni qo'llash imkoniyati keskin ortadi, san'atkor ranglar yordamida mo'jizalar yaratadi.

Xalq ustalarining ijodiy ishlarini qaysi naqqoshlik mакtabiga mansub ekanligini naqsh kompozitsiyasi va rang tuslari orqali tezda aniqlab olish mumkin. Masalan: Xorazm naqshlarida havo rang, yashil tuslarni ko'plab uchratish mumkin. Naqsh elementlari esa spiralsimon islimiylar tashkil etadi. Farg'ona uslubi esa kontrast ranglar, ya'ni yashil ko'k, qizil rang tuslarining bir oz to'qroq darajada aralash uyg'unlashuvi bilan xarakterlidir. Toshkent naqshlari och yashil – qavo rang, to'ti yoyi hamda och jigar rang tuslarda tovlanadi.

Naqsh elementlarini Yevro'pa bezakchilik tuslariga xos oltinsimon jigar rang koloritlarida turlash usullarini birinchi bo'lib naqqoshlik san'atiga usta Toir To'xtaqa'jaev kiritgan.

Mohir pedagog naqqosh usta Mahmud To'raev o'z ustozlari Jalil Xakimov va Toir To'xtaho'jaevlarni xotirlab shunday deydilar:

«Naqqoshlik san'atini sehirgarlik san'atiga qiyosligim keladi. Naqqosh turli rang tuslari orqali naqshdagi jonsiz chiziqlarni kuylata oladi. Ustozlarim Jalil Xakimov va Toir To'xtaqa'jaevning ijodlarini olaylik. Jalil Xakimovning ijodiy

uslublarini mumtoz klassik yo‘nalish deb olsak, Toir akaning naqshlarida lirkani his qiladi kishi»<sup>14</sup>.

Naqqoshlikda ranglar naqsh tuzilishi va uslublariga xos ravishda tovlanadi. Shuningdek, naqsh ishlanadigan buyum yoki yuzaning maqsad–vazifalari, hajmli, balandligi va kompozitsion yechimlari alohida e’tiborga olinadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida ustalar (ayniqsa bino bezaklari) masofani ranglash va pardozlash bosqichlarini ham hisobga oladilar. Bu esa naqshdagi rang tuslarining teng tarqalishi — zamin shakl va gul elementlarining oraliqlaridan yaxshi ko‘rinishiga sabab bo‘ladi.

Ma'lumki, naqshda har bir element shakl va rang tuslarining o‘z nomlari, ramziy ma'nolari mavjud. Naqshlarni ranglash va pardozlash bilan ularning go‘zalligini, mazmun va ma'nolari unsiz tovushlar orqali ifodalanadi. Naqshlarni ranglash bosqichlarida zamin shakl, gul, novda, barg kabi elementlar asosan bitta rang koloritiga bo‘ysungan holda turlanadi. Naqshni ranglash bosqichlari quyidagicha:

- 1–bosqich. Naqshning zaminini (tagini) ranglash;
- 2–bosqich. Naqshdagi shakl oralarini ranglash;
- 3–bosqich. Naqshning gullari, barglari va bandlariga rang berish;
- 4–bosqich. Naqshning shkufta va yo‘l chiziqlarini ranglash;
- 6–bosqich. Naqshga siyohqalam va targ‘il berish;
- 7–bosqich. Naqshning oq bandlari va obisini tortish.


Naqshlarga rang berishda qalamda chizilgan chiziqlarni berkitish, chala bo‘yamaslikka alohida e’tibor berish kerak. Naqsh ranglari bir–biri bilan tutashtirilgan holda bo‘yalmasa, siyoh qalamda berilgan pardoz ko‘ngildagidek chiqmaydi. Natijada naqshning go‘zalligi va chiroyiga putur yetadi.

Naqshlarni asosan guash va akvarel bo‘yoqlari yordamida bo‘yash maqsadga muvofiqdir. Ranglarning xilma–xil tuslarini tayyorlashda guashning oq bo‘yog‘i

---

<sup>14</sup>Холматов Б.К. Накқошлик. –Т.: Иқтисод–Молия, 2007, –98 6.

yetakchi vazifani o‘taydi. Naqshni bo‘yash uchun bo‘yoqlar chinni yoki plastmassa idishchalarda tayyorlanadi.




**36—rasm. 1—gul. «Bodom guli» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**




**37–rasm. 2–gul. «Yak raftor» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**




**38-rasm. 3-gul. «Bargli raftor» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**




**39-rasm. 4-gul. «Bargli islimli» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**



**40–rasm. 5–gul. «Aylana shukuftali islimiyy» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**




**41-rasm. 6-gul. «Mehrob islimi» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**



**42–rasm. 7–gul. «Islimi bafta» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**



**43–rasm. 8–gul. «Qo‘sh mehrobli islimi» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**



**44-rasm. 9-gul. «Patnisgul islimi» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**



**45–rasm. 10–gul. «Islimi shkufta» naqsh namunasini ranglash va pardozlash bosqichi.**

Ayniqsa, maxsus chiqarilgan kolerlarni bir biriga qorishtirishda yoqoch kurakchalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda har bir rang tusi uchun alohida yog‘och kurakcha qo‘llaniladi. Bu o‘z navbatida bo‘yoqlarni ifloslanib ketishdan saqlaydi. Tayyorlangan bo‘yoq judayam suyuq bo‘lsa, unda naqsh yuzasi bir tekisda bo‘yalmaydi. Guash bo‘yog‘ini qog‘oz sathiga qalin va quyuq surtish mumkin emas. Chunki qalin bo‘yoq qavati quriganidan so‘ng, yoriladi va ko‘chib ketadi.

Naqshning zamini — foni uchun rang tayyorlashda uning tusi bir oz to‘qroq olinadi. Sababi, to‘q rangli zaminda boshqa yengil, ochiq tusdagi ranglar yanada tiniq va ravshan, go‘zal bo‘lib ko‘rinadi. Naqshning shaklini ifodalovchi ko‘rinishlarni ajratib bo‘yashda o‘rtacha to‘qlikdagi yoki ochroq tusdagi ranglardan foydalaniladi.

Naqshdagi «Bofta» kabi bog‘lovchi elementlar to‘q ranglar yordamida bo‘ysa, gul, g‘uncha, barg elementlari esa och ranglarda tuslanadi. Naqsh namunalarini bo‘yashda asosan garmoniya, faktura va kontrastlikka e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Garmoniya — grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, munosiblik, bog‘liq bo‘lish, eng go‘zal bog‘lanish degan ma’nolarni anglatadi.

Faktura — lotincha so‘z bo‘lib, narsa yoki buyumning tuzilishi, ishlov berish demakdir.

Kontrast — fransuzcha so‘z bo‘lib, keskin farq, farqlanish ma’nosida qo‘llaniladi. Naqshda ranglar kontrastini zamin va gul elementlarining tuslanishida kuzatish mumkin.

Naqshni bo‘yashdan oldin tayyor bo‘yoq oq qog‘ozga surtib, sinab ko‘riladi. Qorib tayyorlangan rang tusi talabga javob beradigan bo‘lsagina, u bilan kerakli joylar bo‘yab chiqiladi. Bunda naqsh namunasidagi mazkur rang tusi bilan bo‘yaladigan qismlarga yetadigan miqdorda bo‘yoq tayyorlab olinadi. Agar bo‘yoq yetmay qolsa, keyingi tayyorlangan bo‘yoq tusi boshqacha bo‘lib qolishi mumkin. Natijada naqsh namunasining bir butun, yaxlit ko‘rinishiga putur yetadi.

Siyoh qalam — eng nozik qil qalam bo‘lib, uning yordamida naqsh elementlarining atroflari bir xil qalinlikda ravon chizib chiqiladi. Siyoh so‘zi – qora

rang degan tushunchani anglatib, qora rangda naqsh elementlarining chetlarini qalamdek chizib chiqish demakdir.

Targ‘il — gul, g‘uncha, barg elementlarining turli xarakterlarini taroq sifat shakllar yordamida olib berishdir.

**Tayanch tusunchalar:** uyg‘unlik, rang, tus, klassik, koler, sath, fon, garmoniya, faktura, contrast, qil qalam, targ‘il.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Rang uyg‘unligi deb nimaga aytildi?
2. Naqshni ranglash bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
3. Garmoniya nima?
4. Faktura nima?
5. Kontrast nima?
6. Siyoh qalam so‘zi qanday tushunchani anglatadi?




*Mustaqil ta’lim*

1. Rang uyg‘unligini o‘rganish.
2. Naqshni ranglash bosqichlarini o‘rganish.
3. Garmoniyani o‘rganish.
4. Siyoh qalam tushunchani va uni amalda qo‘llashni o‘rganish.
5. Targ‘il tortishni mashq qilish.

### **I.2.5.—§. Naqqoshlik san'atiga xos islimiylar, giriylar, gulli giriylar hamda madohil naqsh kompozitsiyasini tuzish, bo‘yash va pardozlash**

Pedagog—murabbiy—usta naqqosh, musavvir, shoir yoki sozanda biron—bir yangi asarni yaratar ekan, albatta tabiatdan ilhom oladi va undagi mavjud go‘zallikni yanada jozibaliroq aks ettirishga harakat qiladi. Ma'lumki, o‘zbek xalq amaliy bezak san'atining qaysi bir turi bo‘lmisin uning zaminida naqsh elementlari — kompozitsiya asoslari yotadi. Mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun—qoidalarga amal qilingan holda joylashtirish ya'ni kompozitsiya tuzish o‘ziga xos bilim va

malakaga ega bo‘lishni talab etadi. Birgina «Bodom», «Qalampir» nusxalar shaklidan naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo‘zlik kabi xalq amaliy san‘atida turli–tuman o‘ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin.



#### **46–rasm. Islimi naqsh namunasi (Simmetrik naqsh).**

«O‘zbek xalq ustalari qadimdan qo‘llab kelayotgan ko‘plab naqshlar, tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo‘lishiga qaramasdan, o‘ziga xos qonun–

qoidalarga ega. Bu qonun–qoidalar tabiatning o‘zidan olingan. O‘simliklar faqat bir tomonga qarab o‘sadi. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o‘sayotgandek tuyuladi. Lekin, novdada barglar bo‘lib, bir xil yo‘nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshlarda ham o‘z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog‘oz yuzini to‘ldirish emas, balki ongli ravishda tabiat va badiylik qonun–qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iborat»<sup>15</sup>.

Kompozitsiya — lotincha so‘z bo‘lib, joylashtirish, qurish, tuzish degan ma’noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh namunasiga ko‘ra uning elementlari qog‘oz yuzasida bir–biriga bog‘liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Istalgan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzishda avval ko‘plab xomaki ishlar, eskizlar ishlanadi va ulardan eng chiroyli namunalar tanlab olinadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda elementlar o‘rnini almashtirish, qo‘sishma elementlar kiritish orqali uning mazmunini yanada boyitish kabilar ham muhim axamiyatga egadir. Naqsh mazmunini ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Bular kompozitsiyaning bir butunligi, elementlar, shakllar, ranglarning takrorlanishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, kompozitsiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan rang tuslarining ma'lum bir koloritga bo‘ysundirishdan iborat.

Kompozitsiyada naqsh yaratishning shunday qoidasini simmetriya, assimetriya, ritm, markazni topish, stilizatsiya, muvozanat, elementlarning o‘lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilishni tashkil etadi va bunga qat‘iy amal qilinadi.

Naqqoshlikda ko‘proq quyidagilarga amal qilinadi:

- naqsh namunalaridagi chiziqlar harakatning stilistik birligiga erishish;
- simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini aniqlash;
- bular mustaqil naqsh chizish jarayonida uning qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, naqshdagi elementlarning o‘q chiziqiga nisbatan teng ravishda joylashuvi, rang tuslarining bir–biriga muvofiq ravishda naqsh sirtiga yoyilishi, turli gullar,

---

<sup>15</sup>Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. –Т.: Мехнат, 1991.

novdalar va shu kabi shakllarning uzviy ritmik jihatdan bog‘lanishi hamda shu kabilardan iborat.



#### **47–rasm. Islimi naqsh namunasi (Assimetrik naqsh).**

Shuningdek, naqsh namunalarini tuzishda yana kompozitsiya tuzishning quyidagi asosiy qoida–qonuniyatlariga rioya qilinadi:

- chiziladigan naqsh kompozitsiyasini shakl, o‘lcham va taqsimlarini mo‘jalga olish;
- kompozitsiyaning yakka yoki qo‘sish banddan iborat bo‘lishligini nazarda tutgan holda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish;
- kompozitsiyaga novda, barg, gul, shobarg va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukamallashtirish;
- naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan bog‘lab boyitish;
- kompozitsiyaning asosiy shakli (ramkasini) umumlashtirib va shu naqshni nomlash;
- kompozitsiyaning ma’no va maqsadini hisobga olgan holda rang tuslarini aniqlash va boshqalar.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish jarayonlarida simmetriya, assimetriya, ritm, muvozanat, elementlarning o‘zaro birikuvi, turlanishi kabi qoidalarga rioya etish

bilan birga, tabiat go'zalligini chuqurroq his etish, badiiy va ijodiy qobiliyatning rivojlanishi ham shakllanib boradi.

Simmetriya — tenglik degan ma'noni anglatadi. Bunda naqsh elementlari o'q chizig'inining markazi atrofida bir xil o'lchamda joylashadi hamda bir butun yaxlit ko'rinishda chiziladi. Naqsh elementlarining simmetrik tuzilishi — «rapport», naqsh bo'laklari va bo'linish joylari esa «taqsim» deyiladi.

Yo'l ichiga chizilgan hoshiya naqshlari simmetrik rapport tarzida davriy (ya'ni, ritmik) takrorlanib keladi. Rapport naqsh elementlarining ma'lum tartib va oraliqda uzlusiz takrorlanib kelishini bildiradi.

Assimetriya — simmetriyaning teskarisi bo'lib, bunda kompozitsiyadagi muvozanat qonuniyatiga amal qilinmaydi. Naqsh elementlaridagi harakat bir–biriga mutanosib ravishda joylashmaydi. Bunda naqsh elementlari o'q chizig'i va markaz kabi shartli belgilarga rioya qilinmagan holda joylashtiriladi.

Assimetrik naqshlarni ko'proq navo qalam, vassa, tokcha, mavzuli pannolardan: majnuntol, anor guli, guldasta kompozitsiyalarida uchratish mumkin. Mustaqil ijod orqali yangi naqsh namunalari yaratilar ekan, ranglar jozibasi va yorqinligi ham alohida his etib boriladi.

Naqqoshlik, ganchkorlik, yoqoch o'ymakorligi va boshqa xalq amaliy bezak san'ati turlarida dastlab buyum yoki ma'lum bir yuzalarga ishlanadigan naqsh kompozitsiyasini dastlabki xomaki namunasi ishlanadi va u «naqsh chizgilar» deb ataladi. Bu chizgilar xarakter jihatidan rang va pardozlash bosqichlarisiz ishlangan shunchaki qoralama eskizlarga qiyoslanadi.

Naqsh namunalarida yuza va shakl oralig'iga berilayotgan ranglar soni qanchalik ortsa, kompozitsiya yanada chiroy ochib, go'zallahib boradi. Naqshning shakl yasovchi yo'l elementlari va rang tuslari kompozitsiyaning nomlanishida katta ahamiyatga egadir. Mustaqil ijod orqali biz yangi naqsh namunalarini yaratish ekanmiz, ranglar jozibasi va yorqinligini ham alohida his eta boshlaymiz. Chunki, kompozitsiyaning mazmuni va ma'nolariga mos ranglarning o'zaro birikuvi, naqshning nafisligini oshiradi.



**48–rasm. Girih naqsh namunasi.**

Tuzilgan kompozitsiyaning mazmunan boy, chiroyli tuzilishi, naqshning asosiy shakl chegarasi va ramkasiga ham bog‘liq. Kompozitsiya tuzishda dastlab o‘lcham aniqlangach, naqshning asosiy shakli ramkaga olinadi. Naqsh ramkalarini tuzishda elementlar ko‘rinishini yo‘l aylana, chorsi va hokazo shakllarning ichiga joylashtiriladi. Masalan, mehrob, lola, patnis, ishkom, aylana mehrob elementlarini olsak, bu oddiy naqsh elementlarini bosqichma–bosqich, yo‘l, to‘rtburchak va aylana kabi shakllar ichiga joylashtirib, kompozitsiyalarni quyidagicha nomlashimiz mumkin:

1. Mehrob ko‘rinishigagi shakllar — «Mehrob hoshiya», «Mehrob patnis», «Mehrob aylana».
2. Lola ko‘rinishigagi shakllar — «Lola hoshiya», «Lola patnis», «Lola aylana».
3. Patnis ko‘rinishigagi shakllar — «Patnis hoshiya», «Oddiy patnis», «Aylana mehrob patnis», «Patnis aylana».
4. Ishkom ko‘rinishidagi shakllar — «Ishkom hoshiya», «Ishkom patnis», «Aylana ishkom».

5. Aylana mehrob ko‘rinishidagi shakllar — «Aylana mehrob hoshiya», «Aylana mehrob doira» naqsh kompozitsiyalari va boshqalar.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, naqshlarni — shakl yasovchi elementlarning nomlari bilan atash mumkin. Masalan, «mehrob lola» — ko‘rinishi ifodalangan yo‘l ichidagi naqsh shakli odatda «Hoshiya naqshlar» deb atalganligi sababli «Mehrob hoshiya» deb nomlanadi. To‘rtburchak shakldagi naqshlar patnisga o‘xhash bo‘lganligi sababli «Mehrob patnis» shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tashkil etadi va shunday nomlanadi. Aylana — gardish shaklidagi naqsh kompozitsiyasi esa «Aylana mehrob» naqshi deya ataladi.

Ushbu naqsh shakllarini ixtiyoriy ravishda yakka (1), qo‘s (2) va bir necha bandli ramka ko‘rinishlarida chizish mumkin. Bunday turdagи ko‘rinishlar «Naqshlar rejasи» deb ham yuritiladi. Tuziladigan naqsh kompozitsiyasi naqsh elementlarini ana shu kabi turli qoliplar ichiga joylashtirib hosil qilinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o‘rganishda xalq ustalarining ijodiy ishlarini kuzatib, ulardan nusxalar ko‘chiradilar. Shuningdek, turli muzeylar, uylar va ma’muriy binolarni ichki va tashqi tomonlarini bezashda qo‘llanilgan naqshlar va ularning turlari bilan tanishtirib boriladi.

Naqsh elementlarini yangi nusxalarini yaratish, ularni yoddan chizish borasida tabiat qo‘yniga sayohatga chiqish va unda nazariy hamda amaliy bilim, malakalar asosida stillashtirish usullari bilan bevosita shug‘ullanish kerak. Yana ramziylik va qayta ishlashga doir maxsus ketma–ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq–qora fotosuratlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Boshlang‘ich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzishda dastlab buyum yoki yuza sirtini, uning o‘ziga xos o‘lchamlarini diqqat bilan ko‘zdan kechirib naqsh shaklini «hayolan» tanlab olamiz. Albatta bu naqsh elementlari biz qachonlardir kuzatib yoki o‘zlashtirib olgan naqsh bo‘laklaridan iborat. Bunda biz fikr yuritishimiz orqali ish tajribalarimiz, tasavvur, shuningdek xotira zahiralarimizda qanchalik ko‘p naqsh elementlari mavjud bo‘lsa, shuncha ko‘p ajoyib naqshlar tuzishimiz mumkin bo‘ladi.

Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari 2/1, 4/1, 6/1, 8/1 va xokazo bo‘laklar (taqsim) asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga ko‘chirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzoq vaqtlar mobaynida naqqoshlar mehnatini ancha yengillashtirib kelgan.



**49–rasm. Gulli girih naqsh namunasi.**

Sodda naqsh kompozitsiyasini ixtiyoriy ravishda quyidagicha tuzish mumkin: shakl yasovchi reja — qolip ramkasi 4/1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziqlari yakka, qo‘sh va bir necha qo‘sishimcha chiziqlardan iborat bo‘lishi mumkin. Patnis ko‘rinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbadagi bosqich yakka yoki qo‘sh bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mehrob va yurak shaklidan iborat bo‘lishi mumkin. Mashqlar davomida chiziqlarning harakati ravon

bo‘lishiga, shakl chiziqlarining silliq, sinmasdan chizilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Yakka band yo‘lidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan bog‘lanadi.


Endi yuza bo‘shliqlariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir–biriga bog‘langan holda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar bo‘yicha harakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir–birlari bilan yaxlit, uzviy bog‘lanib ketishini ta’minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya’ni ular orqali kompozitsiya mazmuni tugal yechimini topadi. Mavjud naqsh kompozitsiyasini patnis ko‘rinishidagi naqshlar turiga xos bo‘lganligi sababli, «Patnis islimi» deb atalishi mumkin.

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo‘yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o‘zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So‘ng, ana shu qoralama asosida (lozim topilgan taqdirda ayirish o‘zgartirishlar kiritish orqali) har bir elementga alohida ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joyga ko‘chiriladi va yaxlit naqsh tuziladi.

Naqshda kompozitsiyalar asosan yakka va qo‘sish bandli novdalar ishtirokida tuziladi. Yana bir boshqa naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun merrob ko‘rinishidagi naqsh elementlarini tanlab olamiz. Mavjud mehrob elementini yo‘l, to‘rtburchak va aylana shakllari ichiga joylashtiramiz. Ushbu mehrob shakli kompozitsiyada yasovchi (asosiy shakl) vazifasini o‘taydi.

Navbatdagi chiziluvchi barcha naqsh elementlarini to‘ldiruvchi elementlar deb atash mumkin. Chunki ular (novda, barg, gul, kurtak, shkufta va hokazo) naqsh yuzalarini to‘ldirib turadilar. Endi mehrob ko‘rinishidagi shakllarga novda harakati kiritiladi. So‘ngra, shakl yuzalariga mos ravishda lola guli hamda kurtak naqsh elementlarini chizamiz. Bunda o‘ziga xos ko‘rinishdagi yangi naqsh nusxalari hosil bo‘ladi. Demak, kompozitsiyalar to‘rt bosqichda, to‘rtta naqsh elementi yordamida tuzildi. Ushbu naqsh kompozitsiyalarini yo‘l ichiga tuzilganiga ko‘ra «Mehrob hoshiya», to‘rtburchak shakliga «Mehrobli patnis» va aylana uchun «Mehrob aylana» naqshlari deb nomланади.

Mazkur namunalar asosida siz ham shunday naqsh kompozitsiyalarini tuzishni va chizishni mashq qiling. Berilgan namunalar tarkibidagi naqsh elementlarini boshqasi bilan almashtirib, o‘zgacha naqsh tuzib ko‘ring. Bunda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yana qaysi naqsh kompozitsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Fikran naqsh kompozitsiyasi tarkibiga kiritilgan boshqa o‘zgartirishlarni ko‘z oldingizga keltiring. Bu o‘z navbatida tuzilajak naqsh kompozitsiyasini qog‘oz yuzasida to‘g‘ri joylashtirish hamda rang tuslarini tanlashda muhim ahamiyatga egadir. Ko‘rsatilgan ikki, uch xil naqsh elementlarini tanlang va ulardan mustaqil ravishda yo‘lsimon, to‘g‘ri to‘rtburchak va doira naqsh kompozitsiyalarini tuzishni mashq qiling.



**50–rasm. Madohil naqsh namunasini ranglash va pardozlash.**

**Tayanch tusunchalar:** musavvir, bodom, qalampir, majnuntol, joylashtirish, qurish, tuzish, eskiz, simmetriya, assimetriya, ritm, muvozanat, o‘lcham, taqsim, rapport, vassa, tokcha, gulasta, ishkom, qolip, ramka, tasavvur, hoshiya, gardish.

#### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Kompozitsiya tuzish uchun naqqoshlikda ko‘proq nimalarga e’tibor qaratish lozim?
2. Kompozitsiya tuzishning qanday asosiy qoida–qonuniyatları mavjud?
3. Naqsh kompozitsiyalari qanday bo‘laklar (taqsim) asosida tuziladi?



*Mustaqil ta'lim*

1. Simmetriyani o‘rganish.
2. Assimetriyani o‘rganish.
3. Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo‘yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o‘zaro mutanosibligini o‘rganish.
4. Kompozitsiyalarni nomlashni o‘rganish.

## **II–bob. BADIY BEZAK SAN'ATI**

### **II.1.–§. O‘QUV VA TARBIYA JARAYONIDA BADIY BEZAK**

#### **II.1.1.–§. Badiy bezak san'ati fanining shakli va mazmuni**

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida amalga oshirilayotgan badiy bezash ishlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. Zero bu ishlarning barchasi o‘quv yurtidagi ta'lif–tarbiya ishlariga ijobiy ta'sir etadi.

Taniqli pedagoglar estetik did bilan bezatilgan tashqi muhitning talabalarga tarbiyaviy ta'sirini ifodalab, uni butun ta'lif–tarbiya jarayonining muhim shartlaridan biri, deb hisoblaydilar. Shuning uchun amalga oshirilayotgan badiy bezash ishlariga tarbiyaviy tadbirlarning ajralmas qismi sifatida qarash lozim. Mayjud badiy bezash elementlari dekorativ panno, auditoriyalardagi mebel shakllari, yozuv taxtasi va devorlarning rangi — bularning hammasi pirovard natijada inson psixologiyasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Badiy bezak san'ati fanining shakli va mazmuni shundan iboratki, ta'lif–tarbiya jarayonida inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillar va ularni badiy jihatdan bezashni tashkillashtirishdan iborat<sup>16</sup>.

**Tayanch tusunchalar:** estetik, tadbir, dekorativ, psixologiya, panno.

#### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Taniqli pedagoglar estetik did bilan bezatilgan tashqi muhitning talabalarga tarbiyaviy ta'sirini nima deb ta'riflaydilar?
2. Badiy bezak san'ati fanining shakli va mazmuni nimalardan iborat?

#### **II.1.2.–§. Badiy bezak san'atida ishlatiladigan asbob–uskunalar va materiallar**

---

<sup>16</sup>Кодирхўжаев П. Бадийй безак санъати. –Т.: Иқтисод–Молия, 2007, –108 б.

Badiiy bezash ishlarida tasviriy san'atning ko‘p turlari, jumladan, grafika va chizmachilik mashg‘ulotlarida keng foydalaniladigan «Konstruktor» va boshqa markadagi ko‘plab qalamlari ishlatiladi. Bu qalamlarning qattiq, yumshoqligiga ko‘ra har xil turlari qo‘llaniladi. Oliy ta’lim muassasalaridagi badiiy bezash ishlarining deyarli ko‘p qismi: e’lonlar, devoriy, fotogazetalar, bannerlar va boshqalar qog‘ozga ishlanadi. Badiiy bezash ishlarida qog‘ozning «V», «F», «A», «O» turlari qo‘llaniladi.

«V» — yuqori sifatli qog‘oz bo‘lib, unga uzoq muddat saqlanadigan ishlar bajariladi masalan: badiiy ko‘rgazma ishlari.

«F» — tush va guash bilan ishlashga mo‘ljallangan qog‘oz.

«A» — suv bo‘yoqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan qog‘oz.

«O» — ommaviy ishlar uchun tayyorlangan qog‘oz.

Badiiy bezash ishlarida o‘chirg‘ichning ikki xili ishlatiladi. Yumshoq o‘chirg‘ichlar grafit qalam bilan chizilgan chiziqlarni, qattiq o‘chirg‘ich esa tush hamda siyoh bilan yozilgan yoki chizilgan yozuv va chiziqlarni o‘chirishga mo‘ljallangan. Qattiq o‘chirg‘ich maydalangan shisha kukuniga, yumshoq o‘chirg‘ich esa maydalangan marmar kukuniga faktis suyuqligi aralashtirib tayyorlanadi. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ishlab chiqarilayotgan turli o‘lchamdagisi (№1, №2) o‘chirg‘ichlarni o‘rtasidan (diagonal bo‘yicha) qirqib ishlatish ancha qulay.

O‘chirg‘ich keraksiz chiziqlarni yaxshi o‘chirishi, ya’ni yumshoq bo‘lishi uchun uni 1–2 sutka benzinga yoki 3–4 sutka kerosinga solib qo‘yish kerak. Shuningdek, o‘chirg‘chlarni yumshatishda moybo‘yoqlarni eritish uchun ishlatiladigan №2 suyultiruvchi eritmadan ham foydalanish mumkin. O‘chirg‘ichlar aytib o‘tilgan muddatda shishib, yumshoq holatga keladi. Ularni yaxshilab artib 1–2 soat (undan benzin yoki kerosinning hidi ketguncha) suvda qaynatiladi. Bunday ishlov berilgan o‘chirg‘ichlar yumshoq bo‘ladi va qalam chiziqlarini yaxshi o‘chiradi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin yana xuddi shunday ishlov berilgan yangi o‘chirg‘ich olinadi.

Badiiy bezash ishlarida eng ko‘p ishlatiladigan materiallar har xil rangli (suqli va moyli) bo‘yoqlardir. Ulardan qog‘ozga, taxtaga, fanerga, temir va tunukaga, devorga, matoga va hakazolarga yozish hamda tasvirlar tushirishda foydalaniladi.

Akvarel bo‘yoqlari yelimli bo‘yoqlar turkumiga kirib, uni suv bilan eritib ishlatiladi. Akvarel bo‘yoqlardagi ranglar tipikligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Akvarel bo‘yoqlar tush, guash va boshqa bo‘yoqlar bilan yaxshi qorishadi. Akvarel bo‘yoqlarni asosan Rossiya badiiy bo‘yoqlar zavodi ishlab chiqaradi. Ular «Neva», «Malyutka», «SANKT–PETERBURG» va boshqa nomlarda, yarim quruq holatda plastmassa va qog‘oz qutichalarda hamda yarim suyuq holatda tyubiklarda bo‘ladi.

Guash ham suvda eriydigan bo‘yoq bo‘lib, uning asosiy tarkibiy bog‘lovchi moddasi dekstrin va glitserindir. Guashlar bilan bo‘yalgan sirtlar qurigach rangi biroz ochlashadi va jilosiz baxmalsimon tusga kiradi. Guash bo‘yoqlar shisha, tunuka va plastmassa idishlarda, kichkina plastmassa idishchalarda to‘plam holida (6, 12, 24, 44 xil) va pastasimon bo‘lishi mumkin.

Guash bo‘yoqlari bilan ko‘rgazmali tashviqot vositalarini: e’lonlar, chaqiriqlar, devoriy gazeta va hakazolarni badiiy bezashda akvarel bo‘yoqlar va guashlarni qo‘sib ishlatish yaxshi samara beradi.

Emulsiyali bo‘yoqlar yozuv va boshqa badiiy bezash elementlari tushiriladigan yuzalarni grunlashda ishlatiladi. Bu bo‘yoq guash, akvarel va tempera bo‘yoqlari bilan yaxshi qorishadi. Uni suv bilan eritiladi.

Tempera bo‘yoqlari ham moybo‘yoqlar, ham tush bo‘yoqlariga oson aralashadi. Ularni ishlatishda turli texnik usullar qo‘llanishi mumkin. Intererda uzoq vaqt turadigan vitraj, panno va hakazolarni badiiy bezashda emulsiyali bo‘yoqlardan tashqari moybo‘yoqlardan ham foydalaniladi. Moybo‘yoqlarni eritish uchun shisha idishlarda ishlab chiqarilayotga №1, 2, 3, 4 erituvchi suyuqlik, lok, skipidar, razbavitel va boshqa erituvchilardan foydalanish mumkin. Bu bo‘yoqlar oldindan gruntlangan sirtlarda ishlatiladi.

Yuqorida aytilgan bo‘yoqlardan badiiy bezash ishlarida foydalanishda turli shakldagi mo‘yqalammlarga murojaat etiladi. Mo‘yqalammlar asosan uch xil bo‘lib,

yumaloq (akvarel bo‘yoqlarda ishlatish uchun) yapaloq (moybo‘yoqlarda ishlatish uchun) va oval shaklida bo‘ladi.

Akvarel bo‘yoqlarda ishlatish uchun yumshoq mo‘yqalamlar qulay bo‘lib, ular asosan suvsar, olmaxon, kolonokning junidan tayyorlanadi. Mo‘yqalamlar har xil bo‘lib, ularning dastasidagi raqamlar jun qismining yo‘g‘on ingichkaligini bildiradi. Akvarel bilan ishlatiladigan yumaloq mo‘yqalamlar uchli bo‘ladi. Bu esa katta yuzalarni bo‘yash uchun ham, mayda detallarni ishlash uchun ham qulaylik yaratadi.

Mo‘yqalamlarni ishlatish jarayonida ulardan to‘g‘ri foydalanish kerak. Ayniqsa akvarel mo‘yqalamlarini ishlatayotganda ularni junli tomoni bilan idishga solib qo‘yish yaramaydi. Chunki ularning uch qismi qiyshayib, vaqtincha ishga yaroqsiz bo‘lib qoladi. Ularni maxsus tayyorlangan, o‘yiqchalari bo‘lgan taxtachaga dastasining temir qismi bilan yoki stol ustiga yunglari stolga tegmaydigan qilib qo‘yish kerak. Yapaloq mo‘yqalamlarni ishlatib bo‘lgandan keyin shakli bo‘yicha qog‘ozga o‘rab qo‘yish kerak. Agar moybo‘yoqlar bilan ishlangan bo‘lsa, ularni avval kerosin (yoki boshqa shu ishga yaroqli eritma)da tozalab, keyin sovunlab yuvib qo‘yiladi. Uzoq muddat ishlatmay saqlab qo‘yiladigan mo‘yqalamlarni sellofan xaltachada naftalin solib saqlanadi. Bu esa harflarni yozish jarayonida noqulaylik sodir bo‘lishni oldini oladi<sup>17</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, harflarning o‘lchamlari katta yoki kichik bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra ularni to‘g‘ri joylashtirishga, kompozitsiya chiroyli chiqishiga harakat qilish kerak. Bunda harflar o‘z effektini yo‘qotmasligi shart.

Hajmli harflarni faqat devoriy gazetalarning yoki boshqa badiiy bezaklarning nomlarini yozishdagina emas, balki katta harfli (shriftli) pannolarda, shiorlarda turli ranglarga bo‘yalgan holda ishlatish mumkin. Bunda tayyorlangan harflarni kerakli joylarga mayda mixlar bilan qoqib mustahkamlash mumkin.

---

<sup>17</sup>Xayitboyev D.J. Badiiy bezak san’ati asoslari (Metodik qo’llanma). –Urganch.: UrDU, 2005.

**Tayanch tusunchalar:** shrift, effect, sellofan, naftalin, detal, oval, vitraj, panno, tempera, guash, akvarel, plastmassa, dekstrin, glitserin, fanerga, diagonal, kukun, grafit, banner, fotogazeta, konstruktor.

### **MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Badiiy bezash ishlarida qog‘ozning qanday turlari qo‘llaniladi?
2. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ishlab chiqarilayotgan turli o‘lchamdagiga o‘chirg‘ichlarni qanday ko‘rinishda ishlatish qulay?
3. Mo‘yqalamlarning qanday turlari mavjud?



*Mustaqil ta'lim*  
Mustaqil ta'lim

1. Harflarning o‘lchamlarini o‘rganish.
2. Mo‘yqalamlarning turlarini o‘rganish.
3. Badiiy bezash ishlarida qo‘llaniladigan qog‘oz turlarini o‘rganish.

## **II.2.-§. DEKORATIV SAN'AT PRINTSIPLARI VA VAZIFALARI**

### **II.2.1.-§. Badiiy bezak san'ati fanida rang va kompozitsiya**

O‘quv yurtidagi badiiy bezash ishlarining asosi bo‘lgan intererlarni yoritish masalalariga o‘zaro uzviy bog‘liq qarash lozim. Inson ko‘zi sirtlardagi yorqinlik va ranglarni shu sirtlarga tushayotgan yorug‘likning qaytishi natijasida idrok qiladi. Sirtlarning yorqinligi, birinchidan, ularni qanday rangli yorug‘lik nurlari bilan yoritilganiga, ikkinchidan, shu sirt unga tushayotgan nurlarni qanday aks ettirishiga bog‘liq. Kunduzgi yorug‘likda ranglar va ularning tuslari yaxshi ko‘rinsa, kam yoritilgan joylarda ranglar to‘qnashadi va bir–biridan farqlanishi qiyinlashadi.

Ranglar spektrida mavjud bo‘lgan barcha ranglarni uchta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha xarakterlash qabul qilingan:

1. Rang qaytarish koeffitsienti o'lchanadigan yorqinligi (sirtga tushayotgan yorug'lik va sirdan qaytuvchi yorug'lik nisbatlari) bilan.

2. Rang to'lqinidagi aynan o'sha rangning o'zi bilan.

3. Rangning to'yinganligi va tozaligi (rangning ranglar spektridagi boshqa ranglarga nisbat miqdori) bilan.

Ta'lim muassasasi intereridagi rang va yoritilish masalasida eng avvalo ko'rish uchun optimal sharoit yaratish talablaridan kelib chiqish lozim. Yorug'lik va ranglar dars samaradorligiga, ko'rish uchun qulaylik darajasiga, talabalar va o'qituvchilarning umumiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ish xonalari: auditoriyalar, laboratoriylar, ustaxonalar, kutubxonalar va umuman ko'zga hamda diqqatga zo'r keladigan joylarda yorug'lik va rangga mehnatni, hissiyot va kayfiyatni yaxshilash hamda tez charchashning oldini olish vositasi sifatida qarash kerak.

Rangning psixologik vaziyatlari turli ranglar va rang birikmalarining kishilardagi hissiy holatlarga ta'sir etish qobiliyatidan kelib chiqib yaratiladi. Garchi rangni idrok qilishda kishining shaxsiy xususiyatlariga, hayotiy tajribasiga bog'liq juda ko'p sub'ektivlik mavjud bo'lsa-da, mutaxassislar rang kishiga ta'sir ko'rsatishining qator umumiy xususiyatlarini ifodalaydilar. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, xona va intererlarni jihozlash, ommaviy tadbirlar: munozara, miting, tantanali marosim va kechalar o'tkaziladigan joylarni bezash uchun nurni filtrlaydigan rangli yoritkichlar va applikatsiyalardan foydalanish kerakli kayfiyatni vujudga keltirishda katta rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, munozaralarda sariq, to'q sariq, yashil, och jigarrang yoritkichlar yordamida qo'shimcha ishonchlilik, oshkorlik vaziyati, kechalarda och tusli qizil, sariq, havo rang yoritkichlar orqali ko'tarinkilik kayfiyati, tantanali mitinglarda sariq, ko'k, to'q sariq, yashil rangli yoritkichlar bilan jiddiylik, batartiblik vaziyati vujudga keltiriladi.

Dam olish xonalaridagi rang va yorug'lik talabalar va o'qituvchilarning ishdan va o'qishdan bo'sh vaqtlarida yaxshiroq hordiq chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratadigan bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'lif muassasasi intererini badiiy bezatishda uning yoritilganlik



### **51–rasm. A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat**

#### **O‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘quv xonasi.**

Ajratilgan xonalarga tabiiy yorug‘lik manbai chap tomondan tushishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, aynan shunday yorug‘likda ranglarning nozik tomonlarini ilg‘ab olish uchun qulay sharoit tug‘iladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, havo bulutli paytda bichish–tikish xonasida shug‘ullanayotgan talabalar qora matodagi qirqqa yaqin rang tuslarini farqlay olishlari mumkin. Agar havo charaqlab turgan bo‘lsa, nurlar ko‘kintir tus oladi, bu esa ranglarni taqqoslash imkonini pasaytiradi.

Ikkinchidan, auditoriya yoki ustaxonaga yorug‘likning tushishi hajmini aniqlashda muayyan sharoitlarni hisobga olish lozim. Yorug‘lik tushadigan deraza qancha katta bo‘lsa, tushayotgan yorug‘lik hajmi shuncha ko‘p bo‘ladi. Lekin bu derazaning kattaligi shimoliy hududlarda auditoriya yoki ustaxonani isitishni qiyinlashtirsa, janub tomonlarda xonalar haddan tashqari isib ketishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun me'morchilikda tabiiy yoritilganlik koeffitsienti normallashtiriladi. Me'morchilikning vazifasi barcha hollar uchun optimal variant topish, xonalarini yorug‘lik bilan bir tekis ta'minlash choralarini qo‘llashdir. Uning ixtiyorida turli sun'iy yoritish manbalari ham bo‘ladi.

O‘quv ustaxonalarini yoritishda ko‘proq yuqoridan sun'iy yorug‘lik berish usuli qo‘llaniladi. Bu usul nurlarni bir xil yo‘llab, to‘g‘ri soya hosil qiladi.

darajasi muhim ahamiyatga ega. Intererni yoritishda tabiiy yorug‘lik manbaidan to‘g‘ri, oqilona foydalanish ancha murakkab ishdir. Bunda, birinchidan, xonalarning yorug‘lik tushadigan tomonini hisobga olish zarur. Masalan, tasviriy san'at, bichish–tikish mashg‘ulotlari uchun

Yorug‘lik gigienasi juda zarur komponent ekanini doimo yodda tutish lozim. Shifokorlar to‘g‘ri yoritilgan xonadagi muayyan sharoit ish unumdorligiga, o‘qitish sifatiga, talabalarning salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlaganlar.

Yoritish qoidalari uncha ko‘p emas va ularga amal qilish aytarli qiyinchilik tug‘dirmaydi. Birinchidan, auditoriya yoki ustaxonaning umumiyligini yoritilganlik darajasi (stol lampasi yoki boshqa turdagini manbaa bo‘lganda ham) yetarli bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, yoritish manbaini to‘g‘ri joylashtirish kerak, ya’ni u chap tomonidan tushishi maqsadga muvofiqdir. Yorug‘lik lampasidan ko‘zga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yorug‘lik tushmasligi, yorug‘ bilan soya, yoritilgan sirtlar bilan yoritilmagan sirtlar o‘rtasidagi kontrast juda keskin bo‘lmasligi, shuningdek, partalar ustida bir necha yorug‘lik manbaidan buyumlarning soyalari tushishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Mashg‘ulotlarning 3–4-soatlariga borib imkon bo‘lsa, xonalarning yoritilganlik darajasini oshirish talabalar ish qobiliyatini yaxshilaydi. Agar yoz paytalarida respublikamiz ta’lim muassasasalarida bu masala tabiiy yorug‘lik ortishi hisobiga hal etilsa, qish kunlari bu masalaga alohida e’tibor berish lozim.

Atrofdagi buyumlarga soya tushiradigan yorug‘lik manbai ulardagi ranglarni idrok etishni qiyinlashtiradi. Tasviriy san’at xonasi, kartinalar galereyasi tashkil etilgan joylarda texnik tavsiyalarga muvofiq keladigan yoritish vositalarini o‘rnatish zarur. Xonalarning yoritilish darajasi normadan kam bo‘lsa, ko‘z juda qynalib ishlaydi. Bu faqat ko‘rish apparatini emas, balki butun organizmni charchatadi. Bunday sharoitda surunkasiga shug‘ullanish esa ko‘zning kasallanishiga ham olib keladi. Yoritilish darajasi talabalarning ko‘rish faoliyatigagina emas, balki psixik holatlariga ham ta’sir qiladi. Ko‘rish maydonidagi yorug‘likning nisbatlariga rioya qilish ko‘rish uchun juda muhimdir.

Inson ko‘zi turli darajadagi yoritilganlikka moslashishi mumkin. Raqamlar bilan hisoblaganda sezilarli darajada bo‘lsa-da, ko‘rish qobiliyati yoritilganlik darajasi juda yuqori bo‘lgan sharoitga ham, juda past bo‘lgan sharoitga ham ko‘nikadi.

Yoritilganlik darjasini tez-tez o‘zgarib tursa, ko‘z tez charchaydi. Sababi ko‘z har bir o‘zgarishiga moslashishi kerak. Ko‘nikma jarayoni tez-tez takrorlanib turishi ko‘zning toliqishiga olib keladi. Shuningdek, ko‘rish maydoni qamrab olgan sirlarning yorqinligidagi farqlar ko‘zni toliqtirib qo‘yadi. Shuning uchun taxta, devorlar, stol va pollarning rangi qat’iy reglamentlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Ma'lumki, yorug‘lik hamma ranglar gammasini vujudga keltiradi. Rang quyosh nurlari yoki yoritish manbalarisiz hosil bo‘lmaydi. Hamma ranglar axromatik (oqdan qoragacha) va xromatik (spektr ranglari) ranglarga bo‘linadi.

«Rangning yorug‘ligi (yoki yorqinligi), — deydi Ye.S.Xmelevskaya, — uning oqqa yaqinlik darajasidir. Qizil va pushti bir xil tusdagi va yorug‘ligi har xil ranglar bunga misol bo‘la oladi».<sup>18</sup>

Ranglar tabiatini ilmiy asoslash jahonning ko‘pgina olimlarida qiziqish uyg‘otgan. Jumladan, Isaak Nyuton yorug‘lik sinib o‘tib, rang deb hisoblangan nazariyani inkor etib, uning uchburchak shaffof prizmadan o‘tib, turli rangli nurlarga aylanishini tajribada ko‘rsatib berdi.

Intererlarni bo‘yashda bo‘yoqlar rangining ta’sirini albatta hisobga olish kerak. Tibbiyotda ranglar kishining organizmiga ta’sir qilish jarayoni kompleks tarzda kechishini, ya’ni barcha sezgi organlarini qamrab olishini isbotlangan. Odam organizmi rang va yorug‘likning ozgina o‘zgarishini sezadi.

Ayrim ranglarning spetsifikasi haroratni, kattalikni, og‘irlikni va masofani psixologik o‘zgarishiga olib keladi.

Och ranglarga bo‘yalgan sirtlar to‘q ranglarga nisbatan yuqoriroqqa chiqqandek tuyuladi. Yana shu narsa ma'lumki, och rangga bo‘yalgan buyum yengilroq, to‘q rangga bo‘yalgan buyum esa og‘irroq deb tasavvur qilinadi.

Yana shularga alohida e’tibor berish kerakki, oq devordagi qora taxta oqqa bo‘yalgan stolning ustki, sirti yoki qora rangli stol va partalar fonidagi oq qog‘oz, daftarlар ko‘zni tez toliqtiradi, talaba organizmining umumiyligi charchashi mehnat layoqatining sustlashishiga olib keladi.

---

<sup>18</sup>Арюшин Л.Ф. Цветоведение. –М.: Книга, 1982.

Ko‘rish maydonining yon tomonlaridagi yorug‘lik taqsimlanishida xonadagi barcha sirtlarni umumiylar yoritish muhim ahamiyatga ega. Xonadagi sirtlarning yorug‘ qaytarish koeffitsientlari yuqori bo‘lsa, qaytariluvchi tarqoq nurlar bilan yoritiladi. Bunda to‘q rang soyalar yo‘qolib ketadi.

Kunduz kunlari xona devorlari qaytaruvchi nurlar bilan kamroq yoritilgan bo‘ladi. Ikki smenada ishlaydigan ta’lim muassasalarda (ayniqsa, qish paytlarida) ko‘rish maydonining yon tomonidagi derazali devorlar sun‘iy yoritish manbalaridan tushayotgan nurlar hisobiga yorqinlashadi. Shuning uchun derazani qarama-qarshi tomondagi devor rangiga bo‘yash, oynani esa yorug‘lik qaytarish koeffitsienti devorning yorug‘lik koeffitsientiga mos rangli parda bilan berkitib quyish lozim.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, yorug‘lik tushganda yaltirash xususiyatiga ega bo‘lgan buyumlar har tomonlama talabga javob beradigan qilib yoritilgan xonalardagi komfortni buzadi.

Ko‘rish organi kamroq charchashi uchun auditoriya va ustaxonalarini to‘g‘ri yoritish bilan birga ulardagi ranglar gammasinga jiddiy e’tibor berish kerak. Auditoriya va ustaxonalarini bo‘yash uchun ranglar spektridagi yashil, sariq va oq ranglar eng optimal ranglar hisoblanadi. Chunki ko‘z bu ranglarga o‘rganishda boshqa ranglarga o‘rganishdagiga nisbatan kamroq charchaydi. Shuning uchun auditoriya va ustaxonalarini to‘yinganlik darajasi uncha katta bo‘lmagan issiq gammaga bo‘yash kerak. Issiq yoki sovuq gammadagi ranglarni tanlashda mahalliy sharoitlardan kelib chiqiladi. Katta sirtlarni (devor, pol va hokazolarni) bo‘yashda tanlangan ranglar kichik sirtlarda uncha yorqin ko‘rinmaydi. Chunki katta sirtlarga xonadagi boshqa sirtlardan qaytuvchi nurlar ko‘proq tushadi. Katta sirtlarni kul rang yoki uning yuqorida aytilgan ranglar bilan aralashmasiga bo‘yash muvoffiq.

Toza oq rang auditoriyalaridagi ichki sirtlarni bo‘yash uchun tavsiya etilmaydi, chunki u ranglar yorqinligidan kontrastni juda oshirib yuboradi. Auditoriya va ustaxonlardagi buyum va sirtlarning ayrim qismlarini qora rangga bo‘yash xuddi yuqoridagi vaziyatni vujudga keltiradi. Undan tashqari, qora rang o‘zining yorug‘likni yutish xususiyati bilan xonaning umumiylar yoritilganlik darajasiga ham salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Ta'lrim muassasasi binosini rang jihatidan bezashda uning hamma joylarida bir xil rangning qaytarilishi mutlaqo noto'g'ri. Afsuski, ayrim ta'lrim muassasalarida bu hol yuz berib turadi. Ta'lrim muassasasi koridorlari, auditoriya va ustaxonalarning panellarini bir xil rangga (misol uchun yashil yoki havo rangga) bo'yaldi.

Ranglardagi haddan tashqari monotonlik odamni tez zeriktiradi va charchatadi. Estetik nuqtai nazardan olganda ranglardagi to'yinganlik va yorqinlik darajasi turli variantlarda olingan taqdirda ham talablarga javob bermaydi. Bir xil ranglar charchash, xatto, to'yingan ranglarga ega bo'lgan sirtlar ham uncha nazarga tushmay qolishga olib keladi. Shunga ko'ra auditoriya va ustaxonalardagi ranglar ikki-uch xildan oshmasligi lozim. O'quv yurtidagi umumiy ranglar uyg'unligini saqlash uchun bir xil ranglarning to'yinganlik va yorqinlik darajasi bir necha variantlarda olinishi mumkin. Talabalar yoqtiradigan yorqin, to'yingan ranglarni o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonalarda qo'llash mumkin. Dam olish xonalari, vestibyul, zinapoyalar, oshxona, majlislar zali va boshqa joylarda qo'llaniladigan ranglarning yorqinligi va gammasiga qo'yiladigan qat'iy talablarga javob beradigan ranglardan foydalanish kerak. Bu joylardagi ranglarning yorqinlik jihatidan kontrast bo'lishi talabalarning binoga kirib kelishida, tanaffus paytlarida ularning kayfiyatini ko'taradi.

